

MA`RUZA MATNI

7-Jarayon

1-ma'ruza. Qalamtasvir tarixi, uni o'qitishning metodologik asoslari.

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozistiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasining yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini etuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari ham bo'lishi mumkin. tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir masho'ulotlari ko'rib-kuzatib to'o'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, on va sezgi orginlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyo'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida jumladan shunday degan edi: *«Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir»*.

Qalamtasvir masho'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talablarga I-IV kurslarda nazariy va amaliy masho'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy masho'ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir.

Borliqni realistik tasvirlash talabalarga nafaqat amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san'ati, shuningdek yoshlarda borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantiradi.

Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgandir. Tabiatga muhabbat va kuzatuvchanlik, buyumlarni to'o'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shuo'ullanadigan talabalarga xos bo'lmoo'i kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining etuk malakaga ega bo'lishda nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham boo'liq.

Bo'lg'usi pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Bu ko'nikma va malakalar talabaning oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olish vaqtida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Shuningdek, ushbu bilimlar bo'lajak o'qituvchi-rassomning oliygohni tugatgandan so'ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.

Qalamtasvir ishlash metodlari tarixidan

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shuo'ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo'llarini kuzatib, qoya va o'rlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan

ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari o'ziga hos dastlabki kompozitsiya echimiga ega tarzda aks eta boshlagan. Zaravut-Soy (Surxondaryo) o'ridan topilgan jahon e'tiboriga molik ushbu tasvirda odamlarning evvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborish sahnasi tasvirlangan. Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik, naturaga nisbatan bo'lgan kuzatuvchanlik holatlari kishini lol qoldiradi. Ushbu tasvir qadimgi tosh asri (mezolit)ga tegishlidir.

1957 yili Xo'jakentda (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan buo'u tasviri ham diqqatga sazovordir. Uning o'lchami buo'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metrni tashkil etadi. Shu erda topilgan evvoyi buka rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shaklida bo'lib, toshning bo'rtiqligi (relefi) hisobga olinib ishlangan. Bu ikki tasvir so'nggi paleolit davriga tegishlidir.

Eramizdan avvalgi III-II asrlarga mansub kulolchilik buyumlari xamda devorlarga ishlangan suratlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, er, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yuro'izib chiqqanlar. Qeyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Uni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) xarakterga ega suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi shakl, undan keyin esa dastlabki harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga tahlil qilish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlano'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina sa'natga bo'lgan qiziqish yanada rivojlana bordi.

Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avvalo sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu tariqa tasvirlar ishlashning dastlabki metodlari ham yuzaga keldi. Endi shogird hunarmand-ustozining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unda yo'l-yo'riqlar o'rganar edi. Chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom ettrishda muhim o'rin tutgan edi.

Shunday qilib tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin, ushbu dastlabki metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish, hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlangan.

Tasviriy san'atga o'rgatish metodlari to'g'risida gap borganda dastavval Qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha Qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasvirlay olishi, katta maydon chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chiza bilishi shart bo'lgan. Tasviriy san'at metodlarini maktablarda o'rgatilishini biz dastlab Qadimgi Misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi ieroglofik xususiyatga ega bo'lganligidandir. Chunki u yoki, bu fikrni bayon etish faqat tasvirlar orqali amalga oshirishni talab etardi.

Bolani maktabda o'qitish tizimi juda qattiqqo'llik bilan, hattoki majburlash darajasida olib borilardi. Belgilangan maktab qonuniga amal qilinmagan o'quvchi jazolanardi. Qadimgi

manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalariga bo'ysunmagan shogird hivich bilan savalanib, so'ngra uzoq vaqt qorono'u zulmatda saqlangan ekan. O'sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi: «Kundalik o'qishda faol va atrofdagilarga muloyim bo'l. Hech qachon dangasa bo'lma, yo'qsa kaltaklanasan!». Maktablarda rasm chizishga o'rgatish dastlab Qadimgi Misrda paydo bo'ldi. O'qitish rassom-pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiklangan metod hamda qonunlar asosida olib borilardi. Shuni ta'kidlash lozimki, Misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Eshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq Qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Parassiy, Evpomp, Pamfil, Appeleks va boshqa rassomlar o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan eramizdan avvalgi 432 yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir-biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida «*Dorifor*» ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganini ko'ramiz.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib qadimgi Yunonda Sikion, Efess, Fivan kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga keldi. Shulardan eng ko'zga ko'ringani Sikkaon maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga balki, umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi hamda u yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishtirishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratdi.

Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rganganlar. Shuning uchun Sikkion maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlariga kiritilishini yo'lga qo'ygan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtai nazardan qarashni birinchilardan bo'lib oldinga surdi. Tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvirga yuksakbaho berarkan «*Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asos berishi kerak*» deb hisoblardi.

Ko'rib turibmizki, Pamfil tasviriy san'atni, xususan qalamtasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasini ishlab chiqqan. Uning metodikasi asosidasaboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etardi. Bu erda to'liq o'qish davri o'n ikki yil davom etgan.

Qadimgi Yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan lazzatlanishni o'rgatar edilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, Yunon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda fan sifatida haqqoniy tasvirni ifodalay bilishlari ular tarbiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim davri san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda tasviriy san'at sohasida ulkan muvoffaqiyatlarga erishdilar. O'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalari yig'ib, keng ommaga namoyish qilishni odat qilganlar. Ayniqsa bu hol Stezar hukmronligi davrida ko'proq oshirilgan. Lekin, Yunonlik san'atkorlardan farqli o'laroq, Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasirassom-o'qituvchisi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edi. Asosan o'qitish tizimida Bnon rassomlari yaratgan namunalariga esa rassom-ijodkor sifatida emas,

hunarmand nuqtai nazardan nusxa ko'chirish, yunon rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o'qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechish oxir – oqibatda tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

O'rta asrlarga kelib, realistik tasviriy san'at batamom inqirozga uchradi. Chunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalarini va na tasvirlashda Yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy printsiplarni to'liq bilmas edi. Ruhoniylar buyuk Yunon rassom-pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan o'qitishning nazariy asoslarini yo'q qildilar. Uyo'onish davrining ko'zga ko'ringan rassom-nazariyotchisi bu haqda shunday yozadi: *«Imperator Konstantin va Silvestr papasi davrida Xristianlik dini tarkib topdi. Tasviriy san'at misli ko'rilmagan darajada ta'qib qilindi. Buyuk san'at asarlari-kartinalar, ma'budalar va insonning eng buyuk tuyo'usini shakllantiruvchi rassomlar san'atini o'qitish borasida to'plangan chizma, qonun hamda yozuvlar yo'q qilini»*.

Antik nomi bilan yuritilgan ushbu davr san'atning vayron qilinishida turk istilochilari ham o'z «hissalarini» qo'shdilar. Turkklar tomonidan Yunonistonning bosib olinishi tasviriy san'atning batamom rivojlanishdan to'xtalishiga olib keladi. Tasviriy san'at xususan rangtasvir san'ati bilan shuo'ullangan Stendal o'rta asr davrini shunday izohlaydi: *«Bosqinchilar qadimgi olimlarning qo'lyozmalarini yoqib kul qildilar, buyuk san'atkorlar tomonidan tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari yo'q qilindi. IX,X,XI asrlar, Qora zulmat asrlari boshlandi»*.

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslarini umumiy ta'lim fani sifatida o'qitish olib tashlandi. Oqibatda o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'ladi. keyinchalik bu murakkab va ma'suliyatli vazifalar uyo'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan bajarildi.

Uyo'onish davri tasviriy san'atning rivojlanishida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha metodlarni ishlab chiqa boshladilar. Salkam ming yillik turg'unlikdan so'ng, ilmiy bilimlar va san'atni rivojlantirish muammolariga bo'lgan qiziqish yana qaror topdi.

Tasviriy san'at xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo'yicha Chennini, Alberti, Lenardo da Vinchi, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shug'ullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraydilar.

Rasm chizishga nisbatan ko'p bo'lmagan 4 – 6 o'quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular usta rassomlar usta xonasida taxsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borilardi. Usta rassom qanday qilib qalamchizgi bajarish, keyin uni materialda ishlash hamda karton (xomaki rasm) tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqislarni o'rgatar edi.

Qalamtasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tang olinar edi. Shuning uchun ham uyo'onish davri buyuk rassomlari rasm chizish metodlariga katta e'tibor berganlar.

Chennini Chennino «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta e'tibor berib, uning zaminida narsaning o'ziga qarab tasvirlash mashqlari etardi deb yozgan edi. Uning ta'kidlashicha yuksak maxoratga ega bulish uchun shogird xar kuni bir necha soat rasm chizishi kerak.

Florenstiyalik me'mor – Leon Vatista Alberti ham qalamtasvir va uni uqitish metodlariga katta e'tibor beradi. Xususan uning «Rangtasvir to'o'risida uch kitob» nomli mashxur asarlar to'plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni o'rganishdan zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlari, xulosalari, xozirgi zamon akademik rasm chizish metodlariga to'la-to'kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonarda da Vinchi ham o'z xissasini qo'shdi. Uning «Rangtasvir xaqidagi kitob»ida olamning tuzilishi, tabiatdagi

o'zgarishlar, xaykaltaroshlik chizikli va fazo perspektivasi xaqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rish mumkin.

Alberti kabi Leonarda va Vinchi ham tasviriy san'atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur qismi ekanligini ta'kidlar edi. Undan tashqari Leonardo da Vinchi inson a'zolari tuzilishini anatom kabi yuksak darajada o'qib o'rgangan. Insonning xat bir mushak to'qimalarini o'rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uyg'onish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shu'ullanganlardan biri nemis rassomi Albertx Dyurer va Shonlardir. Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun – qoidalari ustida ko'plab tajriba sinovlar o'tkazdilar. Rassom olimlarning diqqatiga sazavor ishlardan yana biri inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish metodini ishlab chiqqanligidir.

Uygonish davri rassomlari jahon tasviriy san'atning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tasviriy san'at bo'yicha ishlab chiqqan perspektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli qurilmagan darajada yordam berdi. Agar o'rta asrlarda tasvirlash metodikasi buyumlar shaklu shamoyilining o'xshashligini e'tiborga olgan holda bajarilgan bo'lsa, endi bu davr qalamtasviri ilmiy asoslangan, anatomiya qonunlarini chukur o'rganish, perspektiva qoidalariga to'la to'kis hisobga olib aks ettirgan holda tasvirlash metodlari rivojlangan davr bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek uygonish davri rassomlari rasm chizish metodikasiga katta xissa qo'shdilar va qalamtasvirni fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular o'qitishning didaktik negizlariga kam e'tibor berdilar. Bu muhim vazifani XU1 asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalar davom ettirib, xalq etaboshladilar.

XVII asr tasviriy san'atni o'qitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida to'la-to'kis uning akademik tarzda davom ettishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirning pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi «Qalamtasvir akademiyasida» ishlab chiqildi. Aka-uka Karrachiliri tomonidan tashkil etilgan Boloniyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda sabok berganlar. Dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalari bilan tanishgan, so'ngra gips namunalari tasvirlangan, shundan keyin inson qiyofasini o'ziga qarab rasmini solgan. Bu mash'ulotlarda u insonning anatomik tuzilishlarini xam chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Boloniya akademiyasida o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng makbul va namunali oliy o'quv dargoxi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib 1648 yilda Parij qalamtasvir va xaykaltaroshlik bo'yicha qirolik akademiyasi, 1660 yili Rimda badiiy akademiya, 1696 yili Berlinda, 1753 yili Madridda San-Fernando, 1757 yili Piterburg akademiyasi, 1768 yili London badiiy akademiyasi tashkil etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari xam mavjud edi. O'quv adabiyotlari ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi hamda shogirdlarning mexribon ustози bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va sulashni mukammal bilgan. Antik davr san'atini chuqur, o'z shogirdlarida o'sha davrda yaratilgan xaykallarni to'ldirish to'ldirish ko'chirish emas, balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga davolat etgan.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya badiiy maktablarining rivojlangan markaziga aylandi. Fransuz akademiyasi badiiy ta'lim tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib

kirdi. Ayniqsa u erda akademik qalamtasvir ishlash borasida talaygina metodik yangiliklar yaratilgani ma'lum.

Qalamtasvir va uning o'qitish metodlarini rivojlantirishga mashxur Franstuz rangtasvir ustasi Dui David xam katta xissa qo'shdi. Tasvir bajarishda deb ta'kidlar edi, u xar bir bo'lak mukammal, aniq ishlanish, shu bilan bir qatorda ushbu qism yaxlit bir butunlikni tashkil etish lozim. Inson qomatini tasvirlashda avvalambor uning ichki tuzilishini skeletini, chukur o'rganib, tashki qiyofasini chizishga o'rgatar edi.

Qalamtasvir o'qitish metodlarini rivojlantirishga aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyuilar xam katta xissa qo'shdilar. 1835 yil ular Parijda yosh rassom va xunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'at buyicha saboq berdilar. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu erda boshqa san'at dargoxlaridan farqli o'larok eng murakkab bo'lgan inson komatini tasvirlashni mukammal urganib bulgandan keyin gips naksh namunalarini chizishga utilgan.

Aka-uka Dyupyuilarning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jixatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi professor o'zining xususiy maktabini taro'ibot etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni «Eskirib, bir erda qotib qolgan» deb hisoblab, ko'p xollarda o'zlari yoshlarga xech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim berardilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar taklif etilib, ularni na kurslarga va na guruxlarga bo'linmagan xolda masho'ulotlar olib borilgan. Masho'ulotlar quyidagicha tarzda edi: Katta xonaning bir necha joyida natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan xolda taxsil olar edilar. Dars davomida o'quvchilarga erkinlik berilib, ular xoxlagan naturaga qarab rasm chizar edilar. Ko'p xollarda u yoki bu vazifani bajarish uchun aniq maqsad ko'yilmasdi. Shuni ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida xam aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan o'quv dargoxlari mavjud bo'lgan: Jumladan venger rassomi Shimon Xolloshi (1857-1919) va yugoslav pedagog - rassomi Anton Ashbelar (1862-1905) maktabi diqqatga sazavordir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodika va o'ziga xos ravishda tuzilgan dasturlar asosida o'qitish tizimi ularni butun jaxonga mashxur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar etishib chiqqanlar.

XIX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'nalishi jixatidan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Neormressionizm, kbizm, ekspressinizm, daizm, syurrealizm va turli tarmoqli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish metodikasi ayniqsa qalamtasvirning rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. San'atshunoslik akademik tarzda o'qitish tizimiga qarshi chikib bunday shaklda ta'lim tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb xisoblar edilar. Tarixdan ma'lumki o'sha davrda namoyish etilgan ko'rgazmalardagi badiiy asarlarning umumiy madaniyat saviyasi uyokda tursin, ularda tasvirlashning oddiy qonun-qoidalariga xam e'tibor berilmaganligini ko'ramiz. XX asrning boshlariga kelib Garbiy Evropa va Amerika davlatlarining badiiy maktablari to'la inqirozga uchradi. Qalamtasvir ishlash uslublari xam keskin o'zgardi. Tasvirlanajak namuna qiyofasini noizchil o'rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini engil-elpi egallash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirlar ishlash o'rni yuksak koralamalar bilan almashdi. Ba'zi rassom-pedagoglar esa o'z o'quvchilariga buyumlar shakllarini xoxlagancha buzib tasvirlashga ruxsat etdilar.

Bu xol sobik sovet tuzumi davridagi o'qitish tizimiga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Akademiyalarga antik davrga mansub gips xaykal namunalari yo'q qilindi, iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan akademik ishlar barbod etildi. Natijada akademik rasm chizish mustaqil

o'quv fani sifatida o'zining qadrini yo'qotdi. Masho'ulotlar uzbilarchilik tarzida o'tkazildi. Tasvirlash uchun buyum va narsalarni (quyilmalarni) o'quvchilar pedagogsiz o'zlari xoxlagan tarzda tashkil etardilar. Vazifalar esa aniq maqsadga qaratilmasdan engil elpi bajarilar edi. Bu esa o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash imkonini bermas edi. 1939 yildan boshlab sobiq ittifoqning ko'pgina yirik shaxarlarining oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'limlari tashkil etildi. 1942 yildan boshlab esa ushbu bo'limlar badiiy grafika fakultetlariga aylantirildi. Ushbu o'quv dargohlarida tasviriy san'at masho'ulotlari xususan qalamtasvir – akademik tarzda narsa va buyumlarni xaqqoniy qilib o'xshatib tasvirlash yo'lga qo'yilgani bilan e'tiborlidir. Buning natijasida yoshlarni turli xil formalistik oqimlarga kirib ketmasliklariga imkoniyat paydo buldi. 1947 yilda esa sobiq ittifoq badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning usha yili qabul qilingan qarorlariga esa 1947-48 o'quv yilidan boshlab barcha badiiy – oliy o'quv dargohlari birinchi kurslarda gipsdan ishlangan antik davr bosh namunalari va odam portreti, ikkinchi kurslarda esa inson qomati va gips tors namunalari, uchinchi kurslarda inson qomatining turli murakkab odatlarini tasvirlash, to'rtinchi beshinchi kurslarda esa 2-3 libossiz gavdaning qalamtasvirini uzoq muddatda akademik tasvirlash vazifalari belgilandi.

Shundan so'ng sobiq ittifoq respublikalarining Tallinn, Kiev, Tbilisi shaharlarida badiiy institut tashkil etildi. 1955 yili Nizomiy nomidagi TDPI qoshida ham Badiiy – grafika fakulteti tashkil etilib, turli yillarda iqtidorli rassom-pedagoglar – O'zbekiston xalq rassomlari M.Nabiev, N.Kuziboev, akademiklar R.Choriev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari A.Boymatov, M.Saidov, dostentlar K.Eminov, Yu.Elizarov, T.Ogonosov, N.Ten, G.Abduraxmonov va ko'plab yirik mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar tasviriy san'atning rivojlangan eng yirik chuqqisi, uni ilmiy asoslangan, mukammal ishlab chiqilgan metodlarida xamda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatining uyo'unlashgan davrida o'z aksini topgan.

Pedagogika universitetlari va institutlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir asosiy fan xisoblanadi. Qalamtasvirga oid nazariy bilimlar esa bo'lajak o'qituvchi-rassom uchun nixoyatda zarur. Qalamtasvir chizish qonun-qoidalari, undagi iboralar, turli ashyolar bilan ishlash texnologiyasi, inson va xayvonlarning plastik anatomiyasi, yoruo' va soyalar, ularning buyum va narsalardagi ko'rinishlari: daraxt va shox-shabalarining tuzilish xususiyatlari kabilarni o'qituvchi mutaxassis o'quvchiga metodik bosqichlardan foydalangan xolda to'g'ri tasvirlashni o'rgatishi va ilmiy jixatdan atroflicha tushuntira olishi kerak.

Keyingi vaqtda tasviriy va amaliy san'atni rivojlantirishga xukumatimiz katta e'tibor bermoqda. Unga esa qalamtasvir masho'ulotlari yuksak darajada olib borilgandagina erishish mumkin.

Buyuk Mikelanjelo Buanorotti aytganidek: “Qalamtasvir - boshqacha qilib aytganda, chizgilar san'ati, rangtasvir, xaykaltaroshlik, me'morchilikning eng yuqori nuqtasi qalamtasvir barcha fanlarning ildizi va manbaidir”. Ushbu so'zlar 500 yil oldin aytilganiga qaramasdan hozir ham qimmatini yo'qotmagan va o'z isbotini topmoqda.

2.-Маъруза QALAMTASVIR VA UNING MAQSAD-VAZIFALARI

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarini yaratishda qoramalar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi "Rangtasvir qonunlari" nomli asarida ta'kidlaganidek, *yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriat talabalariga I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g'oyat muhim. Bu bilim bo'lajak pedagoglarning institutni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san'ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

Bolajak pedagog-rassomlar buyuk rassomlar, tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Qalamtasvir mashg'ulotlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug'-vasoya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda analiz va sintez qilib to'g'ri bajarish.

Bu ko'nikma va malakalar talabaning kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.

O'QUV QALAMTASVIRINING NAZARIY ASOSLARI

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir mashg'ulotlarining amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi - perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash - fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: «Hech qachon fikrlamay

rasm chizmag, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha».

Tasviriy san'at, xususan, o'quv qalamtasviri qonun-qoidolari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabning qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan qonun-qoidalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidanoq rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi hamda o'tmishdagi buyuk rassomlarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at borliqdagi voqea-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «ichki» dunyosini, so'ngra «tashqarisini» o'rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumning haqiqiy go'zalligini, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash -kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir»².

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tamasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogirdlar tarbiyalagan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytganidek, *talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur,*

so'ngra u naturani o'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o'ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, rassomning hayoli uni o'rab turgan borliq bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz mumkin:

I. Perspektiva - buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

II. Plastik anatomiya - inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

III. Fizika - buyumlarda yorug' va soyalarining taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umuta'lim maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo'llay olishi zarur.

Yuqorida bayon etilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlardan unumli foydalanganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta. Biron-bir mashhur san'at asari yoki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin. O'ziga qarab chizilgan suratni rassom qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin.

O'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Tasviriy san'at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi. Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun tasviriy san'at qonun-qoidalariga rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida shunday degan edi: «O'quvchi, avvalambor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so'ngra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak»³.

Buyumlarning konstruktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabadan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, ko'plab maxsus metodik yo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo'yib, yosh rassomlarning chiziqli konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlariga yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning (kub; silindr, konus, prizma va hokozo..) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Tasvir chizishning asosiy qoidalarini.

Tasvir chizishning asosiy qoidalaridan biri perspektivadir. Narsaning ko'zatuvchidan uzoqlashgan sari kichrayib ko'rinishi perspektiva hodisasi deyiladi. Masalan, tekis yo'lning o'rtasiga turib kuzatsak, yo'lning oxiri bir nuqtaga tutashgandek qisqarib ko'rinadi. Tabiatdagi hamma narsa, gorizont chizig'idagi kuzatish nuqtasi, ya'ni ko'zimizga teng bo'lgan nuqtaga qarab qisqarib boradi.

Har bir narsa boshqa narsadan uzoqda turgan bo'lsa, ko'zimizga kichrayib ko'rinadi, tog'lar ham xiralashib ko'rinadi. Unga tushayotgan yorug'lik va soyalar ham yaxlit ko'rinishga ega bo'lib, birinchi plandagi narsalardan farq qiladi. Har qanday narsani qog'ozga tasvirlash uchun, uning joylashishiga nisbatan ufq chiziqli topib olinadi. Bu chiziqli yuqoriga aytganimizdek ko'zimiz balandligiga teng masofadir.

Natyrani tasvirlashda perspektiva qonunlaridan to'g'ri foydalanish muhim shartlaridan biri bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishini ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizont sathiga va vertikal kartina sirtiga nisbatan holati perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Rasm chizishda havo perspektivasiga ham ahamiyat berishimiz zarur. Yaqindagi buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, och – to'qligidan ajralib turadi.

Soya – yorug'likning tasvir tarxiga muvofiq ravishda o'xshatib aks ettirish, ular o'rnini to'g'ri topishga ham bog'liqdir.

Natyrani tasvirlash manzara tasviriga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq. Chunki buyumlar orasidagi masofa qisqaroq bo'lgani uchun uni diqqat bilan kuzatish orqali aniqlanadi.

Tasvir chizishda o'rtacha yumshoqlikdagi TM; M; "2M" rusumli qalamlar, pastel, saus, sangina, pista ko'mirlardan foydalaniladi. Bularning orasida eng ko'p ishlatiladiganini alohida ishga hozirlash kerak. Ularning uchini o'tkir tig' bilan jami bo'lib 30mm, shunda uning grafit qismi 10 mm qilib chiqariladi. Yordamchi chiziqlarni chizishda qalamning yon qismi bilan chiziladi. Shunda yordamchi chiziqlar oq yumshoq o'chirg'ich bilan oson ketadi. Agar qalamning uchi bilan chizilsa, qog'oz yuzidagi chiziqlar o'chmay qoladi.

Inson qomati plastikasini mukammal o'rganishda inson qo'li va oyoqlarini chizishni o'rganish juda muhimdir. Ko'p yillik ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalar inson qo'lini va

oyog'ini chizishda ancha qiynaladilar. Shu sababli badiiy ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida gipsdan yasalgan qo'l va oyoqning tasvirini ishlash o'quv dasturlariga kiritilgan.

Turli davr rassomlari qo'l panjalari tasviriga katta e'tiborni qaratgan. Bu bilan ular insonning fizik va emastional holatini ochib berishga erishdilar.

Qo'l panjalari rasmini chizishda har bir kishi uchun alohida o'ziga xos ko'rishga ega ekanligini hisobga olish zarur.

Portretni qo'llari bilan ishlash insonning ijtimoiy holati, yoshi va emotsional xususiyatlarini anglashga yordam beradi. biz yuqorida ta'kidlaganimizdek insonni qo'llari bilan tasvirlashning o'ziga xos plastik xususiyatlarga ega.

Portret chizishda doimo umumiylikdan hususiylikka qarab borish prinsipiga rioya qilish zarur. Rasm chizishda talaba eng asosiy ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi zarur. Bulardan birinchisi umumiylikdan hususiylikka, ya'ni detalga o'tish prinsipidir.

Unda chiziladigan naturani eng avvalo detallarsiz, umumiy shakli to'liq olinib, so'ngra mayda elementlarini ishlashga o'tiladi. Ikkinchi prinsipimiz bu hususiyatlikdan, ya'ni detallar ishlovidan so'ng umumiylikka qaytishdir. Umumiylikda detallar ishlashga o'tilganda har bir bo'lak alohida ishlanadi va yaxlitlanadi.

Ish jarayonida detallar ishloviga e'tibor berilib, yaxlitlikni unutmaslik lozim. Bu prinsipning muhim tomoni ham shundaki, detallarning har biri boshqasiga solishtiriladi, soya-yorug'liklar nisbatlari tekshirilib, hisobga olinadi. Bu tasvirlanayotgan naturaning har bir detali qo'silib, yaxlitlikka o'tishga xizmat qiladi.

O'qituvchi qalam tasvirni vaqtidan oldin detallashtirishdan saqlab qolish uchun o'qituvchilarni ishini kuzatish berishi shart;

Shu bilan shaklining katta qismlarini chizish kerakligidan ularning diqqatlari chalg'ishidan saqlaydi.

3 – ma'ruza. Tasviriy san'atda qalamtasvirning tutgan o'рни.

San'atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakllana bordi. Grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, xalq amaliy bezak san'ati va boshqalar.

Ularning barchasi inson va ma'naviy hayotning muhim qismi bo'lib, yuksak badiiy ideyallarni, go'zallik haqidagi tushunchalarni ifoda etadi.

Bir san'at turi boshqasidan o'zining mazmuni, badiiy-ifodaviy vositalari va uslubi, his-tuyg'ulariga ta'sir va hayotiy ahamiyati bilan farq qiladi.

Grafika-qalam tasvir va bosma badiiy asarlarni o'z ichiga olgan tasviriy san'at turi hisoblanadi. Shuningdek o'ziga xos tasviriy, ifodaviy vositali san'at turidir.

Shuningdek u o'ziga xos tasviriy, ifodaviy vositalari va ta'sirchanlik imkoniyatiga ega. "Grafika" san'at poligrafiyasi va kollegrafik aniq kontrast chiziqli qalamtasvir usulining keskin rivoji tufayli hamda jurnal va kitoblar chop etishda fototexnik ishlab chiqarilishi jihatidan eng qulayligi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Grafika san'atida obrazning hajviyligiga badiiy vositalarning bir nuqtaga yig'ilganligi va qaratilganligi bilan erishiladi, shuning uchun ham grafikada tugallangan asarlardan tashqari naturadan qoralamalar rangtasvir, haykaltaroshlik va me'morchilik asarlarining eskizlari ham mustaqil ishlanadiki, ular ham mustaqil badiiy qiymatga ega. Texnik tomonidan grafika rasm va bosma grafikaga bo'linadi. Grafika bu san'atning eng qadimiy va an'anaviy turi-rasmning kelib chiqishi, tashqi chizilgan tasvirlar, antik idishlardagi chizgilar bo'lib, tasvir asosini chiziqlar, rang dog'lari tashkil etadi. O'zining konstruktiv-tasviriy va badiiy ta'sirchanlik imkoniyatlari, uslublaridagi cheksizlik va keng ko'lamlilik jihatdan rasm grafikasida rassomning ijodiy yo'li natura bilan doimiy muloqot hisoblanadi.

Rasm bilan rangtasvirda ko'pgina umumiyliklar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi chegara shatrlari hisoblanadi.

O'zining vazifasiga ko'ra dastgohli, kitob, gazeta va jurnal, xalq amaliy grafikasi va plakat bir-biridan farq qiladi.

Dastlabki grafika asosan uyg'onish davtida keng tarqalgan. U an'anaviy tasviriy san'at janrlariga ham murojat qilib keladi.

Bosma grafikaning dastlabki san'ati o'zining ko'p tirajda chiqarilishi, ommaga yetib borishi, shuningdek, bezakdorlik sifatiga ko'ra interyerlarni bezash uchun qo'llaniladigan asosiy sohasi kitobdir.

Rangtasvir san'at turi bo'lib, unda tasvir yoki kartina ranglar orqali matoning qattiq yuzasida yaratiladi. Yorug'- soya, qo'yilgan ranglar ta'sirchanligi fakturi va kompozitsiya, kolorit kabi vositalar predmetlarning hajmi, shakli, o'ziga xosligi, kengligi, teranligi va yorug' havo muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Rangtasvir turg'un va vaqtincha rivojlanish holatini sokinlik va his- hayajonli ruhiy to'laqonlilik, harakat ta'surotini beradi.

Bu holat nafaqat borliqni ko'z bilan ko'rish darajasini yaqqol ko'rinish, balki hayotning keng manzarasini ifoda etish imkonini beradi. Shuningdek rang tasvirda tarixiy jarayonlarning mohiyatini ochib beriladi, insonning ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Rangtasvir asoslarini bajarish uchun suvbo'yoq, guash, pastel, tushdan ham foydalaniladi.

Rangtasvir uchun eng muhim va asosiy tasvirni ifodalovchi vosita bu moy bo'yoq hisoblanadi. Uning ta'sirchanligi turli assatsiativ tugunlarini keltirib chiqaradi.

Rangtasvirning boshqa bir ifodaviy vositasi qalam-tasvir (chiziq va nur soya) rang bilan birgalikda tasvirning ritmik kompozitsiyon yaxlitligini tashkil qiladi, chiziqlar hajmlarini bir-biridan ajralib turadi.

Rangtasvir asari ishlanadigan (mato, yog'och, qog'oz, karton, devor, toshoyha, metall va boshqalar) asos materiyallar odatda grunt va rang qoplama, ba'zan esa lokni saqlaydigan yupqa parda bilan qoplanadi. Rangtasvirning tasviriy va ifodaviy imkoniyatlari, ishlash texnologiyasining o'ziga xosligi, rangning xususiyati bo'yoqning maydalanganlik darajasi, rassom ishlayotgan asbob, u qo'llagan suyuqlikning xarakteriga bog'liq. Shuningdek matoning silliq yoki g'adir- budur yuzasi, birinchi qalam bo'yog'i rangning qo'yilish uslubiga rangtasvir asarining fakturasiga ta'sir qiladi.

Miniatyura kichik hajmli va badiiy uslubning nozikligi bilan ajralib turadigan tasviriy san'at asari. Miniatyuraning maxsus mustaqil xarakterga ega bo'lgan rangtasvir va grafik tasvirdir. (Asosan portretlar)

Miniatyuraning bir turi lokli rangtasvir bo'lib, kichik lokli mahsulotlar yuzasiga moybo'yoq yoki temperada tasvirlar ishlab chiqiladi.

Haykaltaroshlik.

Bu san'at tasviriy san'atning alohida turi hisoblanadi. Haykaltaroshlik san'ati'ni o'rganish uchun o'quvchilar, eng avvalo, san'atning nazariy va amaliy tushunchalariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Shu sababli ular quyidagilarni bilishlari va o'rganishlari lozim:

- haykaltaroshlik san'ati tarixini, umumiy nazariy tushunchalarini;
 - haykal ishlashda ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar hamda ularni tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini;
 - mevalar va sabzavotlar, odam va hayvonlar shakllarini yasashni, grafik tasvirlarni ishlashni.
- Haykaltaroshlik — lotincha «*skulpo*» so'zidan olingan bo'lib, qattiq materiallarga qirqish, kesish, o'yish, taroshlash orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.
- Haykaltaroshlik asarlari makonda ma'lum hajmga ega bo'lgan detallar, shakllar orqali yaratiladi. Uning nafis haykaltaroshlik turi ham mavjud. Bu usul haykaltaroshlikda «maishiy plastika» deb ataladi. Nafis haykaltaroshlik buyumlari o'zining nafisligi, o'lchami kichikligi bilan ajralib turadi. Uni qo'lga olib ko'rish mumkin. Nafis haykaltaroshlikda kishining

diqqatini o'ziga tezda jalb qiluvchi materiallar: chinni, sopol, yog'och, metall va qimmatbaho toshlar, fil suyagi kabilardan foydalaniladi.

Haykaltaroshlikning keng tarqalgan material turlaridan biri loy yoki plastilindir. Bu material turlaridan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda, xalq amaliy san'ati ustalari esa o'yinchoqlar va mayda plastika tayyorlashda foydalanadilar.

U. Jo'raqulov, A. Muxtarov (Samarqand), U. Umarov, A. Hazratqulov, M. Nazrullayev (G'ijduvon), B. Boisov, R. Matchonov (Xorazm), K. Turobov, Yu. Ziyomuhamedov, A. Rahmatov, M. Rahimov, R. Orifjonov, A. No'monov, T. Miraliyev, A. Aminov (Toshkent), T. Tillaxo'jayev (Namangan), A. Xudoynazarov (Katta qo'rg'on), B. Xalilov (Denov), M. Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirolar (Andijon), X. Rahimova (Buxoro), Sh. Qalandarov (Xo'jayli) va boshqa usta hamda kulollar xalq amaliy san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarga bo'yash O'zbekistonda juda qadim zamonlardayoq rivojlangan. Kulolchilik san'ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan o'yinchoqlar kiradi.

Barcha kulolchilik ishlari loy yoki plastilinning yaxlit hajmli bo'lagini yapaloqlashtirish, egish, cho'zish, silliqashtirish va h. k. orqali barmoqlar hamda kaftlar yordamida bajariladi. Badiiy ishlov beriladigan buyumni batartib ishlash uchun maxsus asbob va uskunalaridan foydalaniladi. Bular yog'ochdan yasalgan pichoq (stek)lardir. Yog'och pichoq (stek)lar, odatda, qo'l bilan ishlov berib bo'lmaydigan mayda qismlarni tarashlashda, qirqish, kesib olishda ishlatiladi. Bu yog'och pichoqchalarning shakli turli-tuman bo'lib, ortiqcha loy yoki plastilinlarni sidirish, qirqib olish, o'yib ishlov berishda qo'l keladi.

Loy va plastilinni dumalatib ishlov berish, loyni ishga tayyorlash bosqichlarini bajarishda maxsus fanera — taglik kerak bo'ladi. Bu ish joyning toza bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Loy yoki plastilin faneraga yopishmasligi uchun u laklanadi yoki aliflanadi.

Me'morchilik-insonlarning kundalik, shaxsiy va jamoaviy, hayotiy talablari, ehtiyoji bo'yicha bino yoki ularning kompleksini ko'rish san'atidir.

Me'morchilik badiiy obrazlarda jamiyat hayotining mazmuni, uning taraqqiyoti, estetik ideyallari o'z aksini topadi. Me'morchilik g'oyasi uning qaysi maqsadga qaratilganligi, binonig ichki sahna ko'rinishida, umumiy va alohida shakllarining mutanosibligiga retmik tuzilishida ochiladi.

Me'morchilik inson ruhiga o'zining badiiy va mahobatli shakllari bilan boshqa san'at turlariga nisbatan doimiy ta'sir qilib turadi. U atrof muhitning o'zida xosligini yuzaga chiqaradi va shaharlar xuddi inson singari zamon hayoti hamda o'tgan avlodlar tarixi haqida hikoya qiladi.

Xalq amaliy bezak san'atining turlari. Xalq amaliy san'ati qo'yidagi turlarga bo'linadi: naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, toshtaroshlik, kulolchilik, misgarlik (kandakorlik), zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, savat to'qish, suyak o'ymakorlik, pichoqchilik va boshqa turlariga bo'linadi.

Naqqoshlik. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni uylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Naqsh- arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush hayvon o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilinadigan bezakdir.

Ganchkorlik. Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksini, husn-jamolini dunyo me'morchiligida shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Avg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, o'rta osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shahardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan hohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan-avlodga o'tib tarixiy an'ana sifatida rivojlanib boryapti.

Ganchkorlik san'atimiz faxri beqiyos bebaho xazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o'rganish miliy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o'ymakorlik san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi.

Yog'och o'ymakorligi. Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tavsir taxta yoki yog'och buyumlariga chizib, kesib, o'yib, ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O'rta osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning o'y-ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan bu. O'ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdan va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

Misgarlik (kandakorlik). O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir.

Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki burtik qilib naqsh ishlash tushuniladi. O'zbekiston hududida joylashgan O'rta osiyo shaharlarda metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin, ikkinchi o'rinda turadi.

Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Bu asrlar ramziy ifodalarning yangi uslublari hamda g'oyalarini tarqatish manbai bo'lib xizmat qilgan. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimdan buyum yasash urfi bo'lib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar.

Zargarlik. O'zbek xalq amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik alohida o'rin egallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'lik uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta'sir etgan. Masalan: marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko'z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izdagi ko'lansa hidlarni yo'qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash bivosil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan oshqozon hamda ko'z kasalligiga shifobaxsh, ta'sir etgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan.

Sadaf Sharqda ham, Yevropada ham yuqori baholangan. Undan tug'nag'ich, baldoq marjonlar, ilma tugmalar yasalgan.

Uni qadimda oshiqlar mahbubasiga sovg'a qilgan. Uni taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zehinni ravshan qilgan, kishini badnom ruhiyatini ko'targan.

Tosh va suyak o'ymakorligi. Tosh o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri. Bu san'at kishidan iste'dod va intilishlardan tashqari mehnatsevarlik va hoyatda zo'r sabr-toqad talab qiladi.

Bu san'atni toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yunib, tirnab naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjiri o'yma, yassi o'yma, chuqur o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o'rtacha qattqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi. Yumshoq toshlarga gipstosh, tal'koxlorit, ohaktosh o'rtacha qattqlikdagi toshlarga oniks, porfit, ohakli marmar, marmar va qattiqtoşlarga lazurit, amazon, agat, malaxit, xadent, nefrit va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko'za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi. Ko'za, lagan, namoyon va boshqalarga toshni o'yib o'simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda syujetli rasmlar o'yib ishlanadi.

Suyak o'ymakorligi O'zbekiston xalq amaliy bezak san'atning boshqa turlari kabi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda san'atning eng yosh turidir. Suyak o'ymakorlik Hindiston, Yoqutiston, Afrika-Xitoy umuman Sharq mamlakatlarida yuksak darajada rivojlangan.

Suyak o'ymakorligi juda qadimiy san'at buni har xil arxeologik topilmalar orqali bilib olishimiz mumkin.

Kulolchilik. Kulolchilik loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan. Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir.

To'proq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmsaiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atning zaminidir.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl-mazmun ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinish qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum o'yinchoqlar qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega maxsus to'proqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar.

Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, xumdonda qizdirib pishirganlar. To'proq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillarning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar.

Kashtachilik. O'zbek miliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda balki chet ellarda ham shuhrat qozongan.

O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan darpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa choyshab kabilar hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

Zardo'zlik. Zardo'zlik – hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh tikishdir. U forscha zardo'zi so'zini anglatadi.

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi butun dunyoga mashhur bo'lgan. Vizantiyada zardo'zi kiyim-kechaklarni faqat imperator ayollari aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi to'fayli

zardo‘zlik san‘ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san‘atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi

Rangtasvir janrlari–

janr bu san‘at turining tarixiy shakllangan mavzular jihatidan ichki bo‘linishidir. Janrlarga bo‘linish prinsipi har-bir badiiy ijodiyotga xos holatdir.

Janr- fransuzcha so‘z bo‘lib “tur, ko‘rinish” ma‘nosini bildiradi.

Tasviriy san‘atda asosiy janrlar tasvirning mavzusiga ko‘ra belgilanadi.(Manzara, maishiy janr, tarixiy janr, portret, hatyurmort, animalistiklar)

Tarixiy janr bu –tasviriy san‘atning asosiy janrlaridan biri bo‘lib, tarixiy voqealar, shaxslar, jamiyatning ijtimoiy muhitga bag‘ishlanadi. Asosan o‘tmishga murojaat qilib yaqin o‘tmishda bo‘lib o‘tgan va tarixiy ahamiyati zamondoshlar tomonidan tan olingan voqealarni aks ettiradi. Tarixiy janr ko‘pincha boshqa janrlar bilan aralashib ketadi. Maishiy janr(Tarixiy, maishiy, tasvirlar) portret (Tarixiy shaxslarni tasvirlash), ayniqsa tarixiy janr bilan batal janrni ajratib bo‘lmaydi. unda harbiy voqealar mavzuni ochib beradi.

Tarixiy janr rivoji ko‘pincha tarixiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Uning ko‘tarinki davri esa, ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchaygan yoki jamiyatdagi ilg‘or ideyallarni san‘atda ifodalash va tomoshabinga yetkazish ehtiyoji paydo bo‘lishda yuz beradi. Tarixiy janr ko‘pincha tarixiy kuchlarning fojeali to‘qnashuvi, milliy-ozodlik kurashi, xalqqa tarixning faol harakatga keltiruvchi kuchi sifatida qaralganda yuz beruvchi voqealarning badiiy ifodasidir.

Manzara janri tasviriy san‘atda tabiat, shahar, interyer ko‘rinishlarning tasvirlanishi manzaraga ta‘luqlidir. Manzara janridagi asarlarni ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya‘ni hayotiy ko‘rinishlarini tasvirlasa, boshqalarida borliq, ijodiy tarzda hayolan ifodalangan bo‘ladilar. Ba‘zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin. Manzara janrining paydo bo‘lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirining keng tarqalishi qadimgi Sharq va Kret orollaridagi arxeologik qazilmalar misolida ko‘rish mumkin. Masalan: Eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Xasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda VI- asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, Yevropa san‘atida uyg‘onish davriy ilmiy negizida ya‘ni chiziqli va havo perspektivasi asosida shakllangan edi.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchi mustaqil manzara bo‘lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turidagi manzara biror-bir fon ifoda etadi.

Masalan, portritning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin. Manzara janrning alohida shakllaridan biri bu interyer hisoblanadi. Interiyer binolarning ichki ko‘rinishlarini ifodalaydi, bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida ko‘p uchraydi.

Qadimgi Misrliklar va Xitoyliklar o‘z ishlarida interyerni aql bovar qilmaydigan aniqlik bilan prespektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar. Bu jarayonda ijod qilib Jotto, A.Veproki, Leonardo da Vinchilar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrning ikkinchi ko‘rinishi dengiznavislik (marina- fransuzcha so‘z bo‘lib “dengiz” degan ma‘noni bildiradi) unda asosan dengiz ko‘rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi.

Dengiz janrning shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo‘lgan.

Bu ulug‘ rassom o‘zining umrini faqat dengiz ko‘rinishlarini tasvirlashga bag‘ishladi. Uning “Qora dengiz”, “To‘lqinlar orasida”, “To‘qqizinchi val” kabi asarlari jahon tasviriy san‘tida munosib o‘rin egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalash mumkin. Masalan: portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokozolar. Manzara janri ko‘proq rang tasvirda qisman grafika va haykaltaroshlikda qo‘llaniladi.

Haykaltaroshlikda manzara asosan uning relyef turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko‘rinishlari asosiy emas, balki to‘ldiruvchi qo‘shimcha ahamiyat kasb etadi.

Natyurmort janri. “Natyurmort” so’zi fransuzcha so’z bo’lib, “Jonsiz narsalar” ma’nosini anglatadi. Bu tasvirda rangtasvir ham keng qo’llaniladi.

Tasviriy san’atning bu janriga gullar, mevalar va sabzavotlar, qushlar, baliqlar, oziq-ovqatlar va boshqa turli predmetlar aks ettiriladi. Natyurmort mustaqil janr sifatida XV-XVI-asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo’ldi. Natyurmortning ikki turi mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo’lsa, ikkinchisi yordamchi yoki to’ldiruvchi natyurmortdir.

Natyurmortning birinchi turida faqat natyura tasvirlansa, ikkinchi turida birona portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qo’shimcha detal sifatida ishlangan bo’ladi.

Natyurmortning xarakterli xususiyati - uning go’zallikdan zavqlanishga yo’naltirilganligidadir. Bu vazifani rassom gullar, meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarning turli ko’rinishlari hollarida ifodalay olish orqali bajaradi.

Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o’zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San’at asarini yaratishda qoramalar rassomga yordamchi manba bo’lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o’z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san’at asari ham bo’lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko’plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko’rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg’ulotlari ko’rib-kuzatib to’g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo’l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo’lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg’onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi “Rangtasvir qonunlari” nomli asarida ta’kidlaganidek, *yoshlar o’zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo’lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriat talabalariga I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg’ulotlar orqali o’rgatiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy mashg’ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g’oyat muhim. Bu bilim bo’lajak pedagoglarning institutni tugatgandan so’nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko’nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o’stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san’ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o’rganish narsaning o’ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o’ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to’g’ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san’at bilan shug’ullanadigan har bir talabaga xos bo’lmog’i kerak.

Bolajak pedagog-rassomlar buyuk rassomlar, tasviriy san’at sohasida ko’plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o’rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Qalamtasvir mashg’ulotlari bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o’rgatishni maqsad qilib qo’yadi:

1. Tasviriy san’atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o’zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san’atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug’-vasoya qonuniyatlari.

6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda analiz va sintez qilib to'g'ri bajarish.

Bu ko'nikma va malakalar talabani kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.

O'QUV QALAMTASVIRINING NAZARIY ASOSLARI

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir mashg'ulotlarining amaliy jihatlari o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi - perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash - fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: «Hech qachon fikrlamay rasm chizmag, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha».

Tasviriy san'at, xususan, o'quv qalamtasviri qonun-qoidalari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabani qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan qonun-qoidalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidanoq rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi hamda o'tmishdagi buyuk rassomlarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at borliqdagi voqea-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «ichki» dunyosini, so'ngra «tashqarisini» o'rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumning haqiqiy go'zalligini, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash -kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir»².

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tamasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogirdlar tarbiyalagan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytganidek, *talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so'ngra u naturani o'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o'ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim.*

Boshqacha qilib aytganda, rassomning hayoli uni o'rab turgan borliq bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz mumkin:

I. Perspektiva - buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

II. Plastik anatomiya - inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

III. Fizika - buyumlarda yorug' va soyalarining taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umuta'lim maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo'llay olishi zarur.

Yuqorida bayon etilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlardan unumli foydalanganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta. Biron-bir mashhur san'at asari yoki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin. O'ziga qarab chizilgan suratni rassom qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin.

O'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Tasviriy san'at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi. Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun tasviriy san'at qonun-qoidalariga rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida shunday degan edi: «O'quvchi, avvalambor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so'ngra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak»³.

Buyumlarning konstruktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabadan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, ko'plab maxsus metodik yo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo'yib, yosh rassomlarning chiziqli konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlariga yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning (kub; silindr, konus, prizma va hokozo..) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

4 - Ma`ruza. Tasvirlashninig asosiy qonun qoidalari.

Talaba gips bo'laklari rasmini chizishdan tirik odam boshi rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba avval chizgan ganch modeli doimiy, muhim holatda turgan; boshning yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya va tus berish kuchi rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarmay turgan. Tirik bosh esa doim harakatda bo'ladi: naturachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik bosh tasviri bilan ganch boshni tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani o'zi mustaqil hal qilishga, o'z idroki va ijodiy qobiliyatini faollashtirishga majbur bo'ladi. Gips namunalarda talaba shaklni umumiy ko'rgan. Ushbu haykal namunasini yaratgan buyuk usta ikir-chikir, mayda-chuydalarni chetga chiqarib tashlab,

e'tiborini asosiy narsaga qaratgan. Tirik bosh rasmini chizuvchi endi bularni o'zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Tirik bosh shaklini tasvirlayotib unga tus berishda ham murakkablik tug'iladi. Ganch bosh materialining tus va fakturasi ham bir xil bo'lgan. Yorqin va bo'g'iqlik joylardagi tus kuchi o'rtasidagi farq shaklning u yoki bu yuzasi qanday yoritilganligiga bog'liqdir. Tirik naturadan chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, yonoq va lablari har xil tusda bo'ladi. Yonoq, lablarning qizg'ish tusi bir xil yoritilsa-da, sal bo'g'liqroq tuyuladi. Tirik bosh yuzasining turli rangda bo'lishi shaklning o'zini ko'rishni qiyinlashtiradi, rasm chizuvchi shaklni tasvirlash o'rniga, yorqin va bo'g'iqlik rang dogiarini ko'rish va undan nusxa ko'chirish, ba'zan esa naturada yo'q narsalarni ham o'ylab topishga majbur qiladi.

XVIII-XIX asrlarning klassik badiiy akademiya ta'lim tizimida odamning tirik boshini chizishni maxsus o'rgatishga lozim darajada e'tibor berilmagan. Ganch bosh rasmini chizishdan ganch haykal rasmini, undan so'ng esa yalang'och tirik odam qomatini chizishga o'tilgan. Rassomning ganch boshni chizishda olgan bilim va malakasi tirik bosh va portret chizish uchun yetarli, deb hisoblangan.

Bizning badiiy ta'lim tizimimiz ganch bosh rasmini chizishda bosh shakli qurilishining hamma qonuniyatlari va xususiyatlarini to'liq o'rganishni talab etadi. Chunki tirik boshning plastik xarakteristikasi asosiy mushak va bosh suyaklarining, shuningdek, mimik mushaklar va kalla suyagi qurilishining ko'zdan yashirin boshqa xususiyatlariga ham bog'liqdir. Talabalar ganch modellar rasmini chizganida uning dastlabki asoslarinigina o'zlashtiradilar. Tirik bosh shaklini tasvirlash uchun esa ular yana qator qonuniyatlarni o'zlashtirishlari zarur.

Yuqorida aytilganidek, rassom bosh shakli qurilishi qonuniyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun e'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurilishining qonuniyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilim yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'rtib chiqqan joylari nimaga asoslanganligini bilishi lozim.

A.Dyurer yozganidek: *agar senda haqiqiy asos bo'lmasa, qo'ling erkinlikka erishgani bilan bari bir, hech qanday yaxshi narsa qilishga erisholmaysan. Haqiqiy bilim tufayli esa ancha dadil bo'lasan va ishni mukammalroq bajarasan.*

Rassom tirik bosh shaklini chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

- 1) hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
- 2) rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
- 3) inson portretining individual xususiyatlarini ochish.

qoidalar va qonuniyatlariga aniq rioya qilishga majbur qilamiz. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi tuzilishi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli individual tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriyl san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Yuqorida o'quv akademik rasmning ilmiy asoslari haqida ko'p gapirildi. Ushbu mavzu bundan keyin ham davom ettiriladi. Akademik rasm chizish mohiyati ham shundadir. Ushbu tizimda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ilmiy bilimi uzluksiz oshib boradi, ta'lim uslubi esa ilmiy yo'nalishda olib boriladi. O'tmishda turli akademiylarning gullab-yashnash davrida bunga qat'iy rioya qilingan.

Mazkur darslik ham akademik yo'nalishga asoslangan, shuning uchun ham biz "o'quv rasmi" emas, balki "akademik rasm" atamasini ko'proq qo'llaymiz. O'quv rasmi modernistlarda ham bor, ular ham boshlovchi rassomlarga o'z san'atini o'rgatadilar va ularni shunga tayyorlaydilar.

"O'quv rasmi" tushunchasi san'atdagi har qanday tendensiya va qarashlarni qamrab olishi mumkin. "Akademik rasm" tushunchasi realistik san'at prinsiplari va uslublarini nazarda tutadiki, unda har bir vazifa ilmiy-nazariy asosga ega bo'ladi, ta'lim esa ma'lum tizimga bo'ysunadi.

Akademik ta'lim tizimi G'arbiy Yevropa, rus va o'zbek milliy realistik san'atining eng yaxshi an'analariga, hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasiga asoslanadi. Akademik ta'lim yosh rassom oldida borliq hodisalarining go'zalligi va betakrorligini namoyon etishda moddiy borliqning ob'ektiv qonunlarini ochadi. Bularning hammasi tabiatning eng go'zal mahsuli - inson qiyofasi, xususan, odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir.

Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyotda qo'llashi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining konstruktiv-anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiyasini mukammal o'rganish kerak.

Talaba plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib etishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining o'zgarishi qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarni, balki chuqur paylar, kemirchak(tog'ay)larni ham ko'ramiz. O'tmishdagi buyuk ustalar inson tanasining va bosh tuzilishining anatomik qurilishini diqqat bilan o'rganganlar va suyaklar, mushaklar, paylarning, jumladan, angiologiyaning (qon tomirlarining joylashishini o'rganuvchi fan) asosiy xususiyatlarini eslab qolganlar. Bu bilim rassomlarni kasb mahorati cho'qqilariga yetaklagan.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasi naturadan rasm chizishda chuqur ilmiy bilim talab etilishidan dalolatdir. Talaba naturani o'rgana borib, jiddiy ilmiy ma'lumotlarga tayanib, suyak va mushaklar qurilishining umumiy uyg'unlashuvini tushuna boshlaydi.

Tirik boshni tasvirlashda ularni bilish juda muhim. Kalla suyaklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining xarakteriga, jag' suyagi o'simtasiga, pastki jag' va ensa (gardan)larga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa, uning chuqurchasi va ellipsoid shaklidagi ikkita bo'rtib chiqqan qismiga(ularyordamida gardan suyagi atlant, bo'yin suyagining yuqori umurtqasi bilan tutashadi) e'tibor qaratish kerak. Bu suyaklarning hammasi atroflicha o'rganilishi kerak. Rassom uchun eng asosiysi - u ularni qoida qalam va qog'oz tutgan holda o'rganadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida tirik bosh rasmini chizishda birinchi topshiriq kalla suyagini uch burilishda chizishdan iborat bo'ladi.

Shunday qilib kalla suyagini chizishda shu narsani esda saqlab qolish kerakki, kalla suyagi ikki qismdan - kalla suyagi qutisi (ensa, gardan tomon) va old qismlardan iborat bo'ladi. Ular turli shakl va o'lchamdagi juda ko'p suyaklardan tashkil topgan.

Kalla suyagi umumiy qonuniyatlarini o'rganishda uning yoshga ko'ra o'zgarishini ham hisobga olish zarur. Kalla suyagining yoshga ko'ra o'zgarishlarini beshta davrga ajratish mumkin: birinchisi - tug'ilishdan yetti yoshgacha, ikkinchisi-yetti yoshdan jinsiy yetuklik yoshigacha(16yosh); uchinchisi - o'n olti yoshdan 30 yoshgacha (to'liq o'sish va rivojlanish yoshigacha); to'rtinchisi - 30 yoshdan 60 yoshgacha va beshinchisi – 60 yoshdan katta yoshgacha. Go'daklarda kalla qutisining miya qismi old qismiga qaraganda ancha katta bo'ladi. Ikkinchi davrda suyaklarning o'sish jarayoni sekinlashadi va old gardan suyaklarining

o'lchamlari o'rtasidagi farq uncha bo'lmaydi. Uchinchi davrda peshona suyagi tez rivojlanadi, kalla suyagining miya qismi kengayadi va yuqoriga qarab o'sadi, old qismi uzunlashadi, yonoq suyagi yoylari keskin yozila boshlaydi. Kalla suyagi uzil-kesil, ya'ni katta kishilarga xos ravishda shakllanadi. To'rtinchi davrda suyaklar o'sishdan to'xtaydi va hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Beshinchi davrda old qismi o'zgara boshlaydi, ya'ni kichrayadi, tishlar to'kila boshlaydi. Buning natijasida pastki jag' ko'tariladi, dahan keskin old tomonga turtib chiqadi, yuz qisqaradi; kalla suyagining choklari qotadi.

Odamning tirik boshini tasvirlashda rassom boshning yelka kengligi bilan tutashish qonuniyatlarini ham bilishi kerak.

Talabaniq diqqat-e'tiborini tirik bosh rasmini chizishning alohida muhim tomonlariga qaratiladi.

Oldin aytib o'tilganidek, tasvirlash jarayonini alohida bosqichlarga bo'lish shartli bir holdir. Bu rassomga faqat o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirib olishi uchun zarur. Quyida tirik bosh rasmini chizishning to'rtta bosqichiga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi:

- 1) tasvirning kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakterini, shuningdek, qismlar va umumiy shaklning proporsional nisbatlarini belgilab olish;
- 2) bosh shakli anatomik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan holda chiziqli-konstruktiv tasvirlash;
- 3) tus munosabatlarini hal etish orqali shaklni detalli chizib chiqish;
- 4) material xususiyatini ochib berish va ishga yakun yasash -umumlashtirish. Bularning hammasini odam yarim qomatini qo'llari bilan tasvirlash misolida ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich. Qog'oz yuzasida tasvirni kompozitsiyaviy joylashtirish, bosh, gavda, qo'l shaklining umumiy xarakteri va proporsiyalarini belgilash.

Bosqichli rasm chizishga kirishishdan oldin naturani har tarafidan kuzatish va xarakterli xususiyatlarini belgilash, eng qiziqarli nuqtani tanlash va ushbu nuqtadan rasm qanday ko'rinish kasb etishini tasavvur qilib olish zarur. Buning uchun turli nuqtalardan turib qator kompozitsion qalam chizgilar chizish, bu nuqtalardan eng ma'qulini tanlash lozim. Bu narsa shuning uchun qilinadiki, rasm ishlash jarayonida birdaniga tanlagan joydan "sovib" qolish mumkin.

Talabalar, odatda, naturaning ifodali turishining o'zidanoq ilhomlanib ketadilar va darhol kompozitsion vazifa hal etildi, endi uni faqat mexanik tarzda, ko'zga qanday ko'rinayotgan bo'lsa - shundayligicha qog'ozga tushirish qoldi, deb hisoblaydilar. Lekin natura obrazli, juda yorqin va ifodali bo'lishi bilan birga, tasvirda uning ko'rinishi yetarli darajada ishonchli chiqmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham rassomga asosiy massa, bosh silueti, yuz tuzilishi, soch va ko'zlar go'zalligini ko'rish va his qila bilish juda muhimdir. Ushbu modeldan kompozitsion chizgilar chizishda talaba, avvalo, eng ifodali ko'rinishni tanlab olish kerak. Qulay nuqta tanlab olingandan keyin rasm chizishga kirishiladi.

Avvalo, qalamni qog'oz ustida yengilgina, bosmasdan harakatlantirib, modelning kompozitsion tuzilishini hal qila borib, bosh, gavda, qo'llarning umumiy shakllari belgilab olinadi. Kompozitsion yechim ustida ishlayotib, bir yo'la bosh sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Tasvir qog'oz ustida joylashtirilib bo'lingandan so'ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishini (holatini), uning bo'yin va yelka kengligi bilan birikishi aniqlab olinadi.

Geometrik shakllar, jumladan kubni tasvirlashda bo'lgani kabi, bosh rasmini chizishni uning katta shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old va yon qismlarini chiziqlar bilan belgilab olingandan so'ng, unga profil chizig'i qo'yiladi va naturaga qarab, uning yo'nalishini tekshirib olinadi. Shundan so'ng old qismdagi burun, lab, ko'zlar joylashgan o'rinlari aniqlanadi. Profil chizig'i yordamida alohida

qismlar, yaxlitlik hamda boshning umumiy shakli ko'rinishi proporsional nisbatlarni ham aniqlab olish mumkin.

Talabalar ganch boshni tasvirlayotganda qurish sxemalari va proporsiya qonunlaridan dadil foydalanadilar. Lekin tirik bosh rasmini chizishga o'tishda ular bunga botina olmaydilar. Tirik bosh rasmini chizishda profil chizig'ini dadillik bilan uchta teng qismga ajratiladi. Bu nafaqat tasvirni to'g'ri qurish, balki portret o'xshashligiga erishishga ham yordam beradi. Masalan, profil chizig'ini uchta teng qismga ajratib, ushbu misolda ko'rsatilganidek, sochi to'kilayotgan kishida sochlar qoplamasi qoplama chizig'idan ancha balandda joylashishini, quyuq, osilgan qoshlar, qosh usti yoylaridan pastroqda bo'lishi belgilanadi.

Ushbu bosqichda eng asosiysi – bosh, yarim gavda va qo'lning umumiy ko'rinishi va uning xarakterini to'g'ri belgilab olishdir. Detallar (burun, ko'zlar, og'iz, panjajar) faqat belgilab qo'yiladi: ularga tus berishga shoshish kerak emas, ularni keyinroq, hamma narsalarni o'z joyida belgilab bo'lgandan keyin qilsa ham bo'laveradi.

Amaliyotdan ma'lumki, ko'pchilik talabalar tirik bosh rasmini chizayotganda "umumiylikdan xususiylikka, katta hajmdan kichik hajmga" usulida ishlashga amal qilmaydilar. Ular katta shaklning umumiy xarakterini aniqlab olmay, mayda ikir-chikirlarni - kipriklar, ajinlar, teridagi nuqsonlarni chizishga kirishib ketadilar. Ularning nazarida bular portret o'xshashligini ochib berishda eng asosiy narsadek tuyuladi. Shuning uchun ular rasm chizishga kirishar ekanlar, bosh shaklining umumiy xarakteri bilan tanishib chiqmaydilar, qiyofachini faqat bir tomondan (bir nuqtadan) kuzatadilar, ya'ni boshni faqat qisman ko'radilar. Ular nimani ko'rsalar shundayligicha passiv ravishda ko'chirib qo'ya qoladilar. Buning asosiy sababi talabalar ganch bosh rasmini chizishda olgan bilim va malakasini unutib qo'yganligidadir. Bunday talabalarga detallar chizishgina emas, balki proporsional nisbatlarni to'g'ri belgilash, shakl xarakteri, alohida qismlarning o'zaro

bog'liqligini to'g'ri ochib berish muvaffaqiyat keltirishini tushuntirish kerak. Shuning uchun talaba e'tiborini dastlab bosh shaklining umumiy xarakterini belgilab olishga, so'ng detallarning joylashish o'rinlarini aniqlab olishga qaratish lozim. Tasvirga o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lishi uchun qog'oz ustida qalamni yengilgina yurgizib chiziladi va chiziqli - konstruktiv rasimga o'tiladi.

Ikkinchi bosqich - perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh va qo'lning chiziqli - konstruktiv tasvirlash.

Umuman, bosh, gavda, qo'l va uning bo'laklarini chiziqli - konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda hajm qanday tashkil topishini ko'rgazmali ravishda ko'rsatishga harakat qilinadi.

Har bir yuza har xil yoritilgan. Shu yuzalarni yengil chiziqlar bilan ifodalab, butun bosh shakli, yarim gavda, qo'l va uning bo'laklarini ham to'g'ri va ishonchli tasvirlash mumkin.

Bosh shaklini chizishda shaklning konstruktiv asosini ochib borib, bir yo'la kalla suyaklari bilan birga gavda, qo'l suyaklariga asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish lozim. Gardan suyagi oldinga turtib chiqqan, bosh usti chiqiqlari peshona bukrilariga nisbatan biroz keng, yonoq suyagi o'simtalari yaxshi rivojlangan va yonoq suyaklari ancha oldinga turtib chiqqan, pastki jag' keng, kalla suyagi qutisi suyaklar bilan zichlashib ketgan. Shaklni bunday tahlil qilish rassomga boshning xarakterini to'g'ri ochib berish imkonini beradi. Shaklni yuzada oddiydan - murakkabga prinsipi asosida tasvirlashda katta shaklni tasvirlashdan detalli tus berishgacha bo'lgan jarayonlarda, umuman, boshni va alohida detallarni (burun, lab, ko'z, qo'llarlarni) tahlil qilishda ham mavjud qoidalarga so'zsiz rioya qilish kerak.

Ko'z, quloq, burun, lablar shakliga aniqlik kiritib borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turish lozim. Har bir bo'lak bir-biri bilan uyg'unlashgan chog'ida maqsadga erishiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik burun, qosh usti chiqiqlari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashtiruvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

O'xshashlikni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashish xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur. Ko'zlar shunday joylashishi kerakki, unda ichki (ko'z yoshi qopchig'i) va tashqi burchaklar gorizontal chiziqli tursin; bu holni Yevropa irqiga xos kishilarda kuzatish mumkin. Ko'zlar shunday joylashishi mumkinki, unda ichki burchaklar (ko'z yoshi qopchig'i) tashqi burchaklardan pastroqda bo'ladi, bu holni mo'g'ul irqiga oid kishilarda kuzatish mumkin. Lekin ko'zlar shunday ham joylashgan bo'lishi mumkinki, unda ichki burchaklar tashqi burchaklardan yuqoriroq turadi

Rasmni chizishni uning katta shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old va yon qismlarini, gavda va qo'l holatlarini chiziqlar bilan belgilab olingandan so'ng, unga profil chizig'i qo'yiladi va naturaga qarab tekshirib olish zarur.

Shundan so'ng old qismdagi burun, lab, ko'z qo'llar joylashgan o'rinlar aniqlanadi. Profil chizig'i yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda bosh, qolning umumiy shakli ko'rinishi proporsional nisbatlarni ham aniqlab olish mumkin.

Uchinchi bosqich - tus berib shaklni detallashtirish.

Shaklni detallashtirishdan oldin ish bosqichlarining to'g'ri hal etilganligini yana bir bor tekshirib chiqiladi. Shaklning umumiy ko'rinishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-asta tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalar belgilab chiqiladi. Bu esa bosh hamda umumiy shaklni yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiy shakldan kelib chiqqan holda, yuz bo'laklariga o'tish mumkin. Alohida bo'laklarga aniqlik kiritib borib, shakl tuzilishi qonuniyatlariga e'tibor beriladi.

Masalan, ko'zlar rasmini chizayotganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'z soqqasining old bo'rtmasini muguz parda tashkil etadi, uning orqasida markazdagi ko'z qorachig'i bilan rangdor qoplama turadi. Ko'pchilik talabalar ko'z qorachig'ini o'rtasida qora doira bo'lgan yassi disk sifatida tasvirlaydilar. Bu noto'g'ri. Qorachiqli rangdor qoplama yassi emas, balki qabariq shaklga ega. Ko'z soqqasini qovoqlar yopib turadi.

Ko'z bir tomonga qaraganda muguz qabarig'i yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buradi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganda uning tashqi va ichki tomonlariga e'tibor beriladi. Ushbu misolda naturachining nigohi o'ngga va biroz yuqoriga qaragan. Ko'z shaklni detalni chizib chiqishda yorug'likning taqsimlanish qonuniyatlarini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Oddiy sharoitda yorug'lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug'likda qoladi. Talabalar, odatda yuqori qovoqning pastki yuzasini va pastki qovoq qalinligini bir xilda tuslaydilar, ba'zan esa qovoqlar qalinligini faqat chiziqlar bilan berib, umuman, ko'rsatmaydilar. Pastki qovoqni, ayniqsa, portret o'xshashligiga erishayotgan paytda juda ehtiyotkorlik bilan, qalamni qog'ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak. Qoshlar rasmini chizishga jiddiy e'tibor beriladi.

Qoshlar xilma-xil: keng, tor, qalamqosh, baroqqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi mumkin. Portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning to'g'ri yoritilishiga bog'liq. Ushbu vazifada naturachining qoshlari quyuk, ko'zlari ustida osilib turibdi.

Tirik odamning boshini tasvirlash jarayonida shaklni detalli ishlash, detallarni umumlashtira olish rasmning badiiy ifodali chiqishiga yordam beradi. Detalni ishlash rasmning ifodali chiqishini ta'minlaydi. Ishning ushbu bosqichida bosh shakli va uning detallariga aniqlik kiritib borib, bir yo'la tus berishga ham asos tayyorlashingiz kerak.

Qo'l va panjalarni ham ishlashda alohida ahamiyat beriladi. Bosga nisbatan qancha kichikligi aniqlanadi, panja bo'g'imlarining tuzilishi va joylashishi hisobga olinadi.

Akademik rasmda nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasi qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ko'pchilik talabalar "tus" atamasini noto'g'ri talqin qiladilar. Bu atama ustida biroz to'xtalib o'tish lozim.

"Tus" (ton) grekcha "tonos" so'zidan olingan bo'lib, u "kuchlanish" degan ma'noni anglatadi. Tus (ton) - yorug'likning fizik xarakteristikasidir.

"Tus" deyilganda bir yorug'lik manbaidan predmet yuzasiga tushgan yorug'likning miqdori va sifatini hamda predmet rangini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilishining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq. Tus yorug'lik manbaining xarakteri (tabiiy - quyosh, oy nuri; sun'iy -elektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet rangi bilan o'lchanadi.

Yorug'lik (nur) jism yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalarning yorug'lik manbaiga nisbatan holatiga qarab, tus xarakteristikasi ham o'zgaradi. Rasm chizuvchilar, ayniqsa, tirik odam boshi rasmini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko'p chalkashadilar. Ular bosh shakliga tus berayotganlarida nur-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yorishganlik darajasini ilg'ab olamaydilar. Masalan, ular qora sochlarni tasvirlayotganlarida bu sochlarni darhol bir tekis, bir xil rangga bo'yab qo'yadilar va qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug'lik bo'lishini ko'rsatmaydilar. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorug'lik xuddi, aytaylik, burun uchiga tushgan yorug'lik kabi bo'lishi mumkin.

Juda ko'p hollarda naturani uzoq vaqt davomida tasvirlash natijasida talabada his etish (qabul qilish) jo'shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko'chirishga va chizayotgan rasmini "bo'yab tashlashga" o'tadi. Ushbu kamchilikning oldini olish uchun P.Chistyakovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz: "Detal ustida uzoq ishlash kerak emas, chunki qabul qilish (his etish) jo'shqinligi yo'qola boshlaydi. Undan ko'ra boshqa, yon-atrofdagi qismni chizishga o'tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko'rish oson bo'ladi".

To'rtinchi bosqich - materiallikni hal etish va ishga yakun yasash-umtimlashtirish.

Ishning bu bosqichi eng qiyin va davomlidir. Bunda talaba vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganligi bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishi kerak. Talaba model shakliga tus berishda bir yo'la uning materiallik tomonini ham ochib tushay olsa, rasmning ifodaliligi yanada ortadi. Masalan, agar talaba naturachi ko'zining shakli va xarakterini to'g'ri tasvirlasa-yu, ko'zlarga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko'zlarni tasvirlar ekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko'zlar jozibasi kabi omillarni to'g'ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko'zlar jozibasi deganda shu narsani tushunish kerakki, ko'z soqqasi doimo ko'z yoshlari bilan namlangan bo'ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko'zining ishonchli va ifodali chiqishiga erisha olmaydi.

Shaklga tus berish va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qosh, mo'ylov qo'l va kiyimlar tusini kuchaytiramiz. Bu yuz, soch, qo'l, kostyum kabilar xususiyatini ochishga yordam beradi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklning plastik xarakteristikasini aniqroq ifodalashga harakat qiling, ba'zi joylarda paydo bliadigan ola-chiporlardan cho'chimang. Bunday hollarda P.Chistyakov o'quvchilarga shunday der edi: *"Tasvirlash jarayonida bir joydan ikkinchi joyga o'tayotganingda butun shaklni ko'zdan qochirma, darrov umumiylikka intilma, balki detallar ichiga kirib ket, dastlabki ola-chiporlardan qo'rqma, uni umimlashtirish uncha qiyin ish emas, asosiysi -umimlashtirilsa bas. Shaklning hajmini berishga intilish sening chiziqlaring, chizgilaringni jonli va ifodali qiladi"*.

Oxirgi bosqichda qilingan ishga umumiy yakun yasash kerak. Shu yerning o'zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishda yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining ishonchliligi va tus berish nisbatlarining to'g'ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi.

Eng avvalo, ramming uyg'unlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detalni ishlash jarayonida siz rasmni surib yuborgan bo'lishingiz, detallarning o'zaro bog'lanishi yo'qolgan, shaklga tus berish anatomik tuzilishiga putur yetgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, biror joyda unga yangidan chizgi ish, kontur bo'yicha esa ifodani bo'rttiruvchi chiziq tortish kerak bo'lar. Shuningdek, har bir detal shakli xarakterini feksirib chiqish zarur, chunki ular nafaqat bosh shaklining umumiy tuzilishini to'g'ri tasvirlash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini bo'rttirib ko'rsatish uchun ham kerak.

Shundan so'ng tus berish vazifasi to'g'ri hal etilganligini tekshirish ak. Bu o'rinda naturada eng to'q va eng yorug' joylarni belgilab cniqish, ularni yarim soyaga taqqoslagan holda tasvirni umumiylikka keltirish lozim. Detaillarni ishlash darajasiga alohida e'tibor berish zarur.

Bosh va qo'l shakli qismlarini ishlash paytida uning umumiy yaxlitligi –uyg'unligiga putur etkazib qo'yish mumkin. Masalan, quloq juda ham qiyin, peshona qism haddan tashqari serajin va qoraytirib yuborilgan, lar bir-biridan keskin ajralib qolgan bo'lishi mumkin va hokazo. Unday yuz bermasligi uchun ishning yakunlovchi bosqichini amalga oshirish kerakki, bunda boshning qismlari yagona butunlikka erishiladi. Shakl haddan tashqari maydalashib, ajinlar ko'payib ketgan ajinlarni umumlashtirish, yorug'likni yaxlitlash, yorug'lik manbaiga qarab, uni bir tekisda uzoqlashayotgan holatga keltirish lozim; alohidagi qismlarga shunday tus berilsinki, ular umumiy, butunlashuvdan chiqib ketmasin. Tasviriy san'at qonun-qoidalariga ko'ra uzoq plandagi detallarga kamroq, yaqin plandagilarga esa ko'proq ishlov berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda bo'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar hosil qilmasligi, uzoq plandagi yorug'lik va soya kontrastlari inga "chiqib" qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday hatolarni oson ilg'ab olish uchun tasvirga ko'proq uzoqroqdan turib qarash kerak.

Portretni qo'llari bilan ishlashning metodik ketma-ketligiga yakunyasalayotganda shu narsa esdan chiqarilmasligi kerakki, ishning har birchizig'iga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvirlashning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga uzluksiz, har bir bosqich alohida qanday hal etilishini bilgan holda ishonch bilan ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ishlashda amaliy tajribasi bo'lgan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega boia boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga, ba'zilar o'ylagandek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvirlash jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lish mumkin.

Tirik bosh rasmini chizish mashqlaridan keyin bir qator boshlarni yelka kengligi bilan birga chizib ko'rish kerak. Bu vazifalar boshning yelka kengligi bilan bog'lanish qonuniyatlarini o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Bunday mashqlarni bajarishda bo'yin va yelka qo'llarning plastik xarakte-ristikasiga alohida e'tibor beriladi. Dastlab boshning bo'yin va yelkaga nisbatan holati aniqlab olinadi, ya'ni uni yelka kengligining romb sifat maydonchasiga to'g'ri "o'rnashtiriladi". Shundan so'ng o'ng va chap tomondan ko'krak-o'mrov suyagining plastik xarakteristikasi aniqlanadi.

O'mrov o'simtalarining joylashish holati kuzatili, bo'yinturuq chuqurchasiga nisbatan tors ko'krak qafasi va bosh, qo'l holati tekshiriladi. Agar natura topishning iloji bo'lmasa, bunday holatni ko'zguga qarab, chizish ham mumkin.

Tirik odam boshidan muntazam ravishda xomaki rasm va chizgilar qilish zarur. Bunday xomaki rasmlar odamning butun tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, hayotni real tasvirlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Realist rassom insonning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm chizish talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslar yordamida tasvirlashga majbur etadi. Talaba davomli o'quv rasmda asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvirlash qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. O'quv-akademik rasm chizishda talaba bu ishni pedagog yordamida,

uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm turli yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasmi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish uchun chiziladi. Ijodiy rasm esa, olingan bilim va ko'nikmadan badiiy obraz yaratish uchun chiziladi. Shuningdek, talaba avval olgan bilim va malakasi asosida yangilik yaratadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv rasmining ijodiy jihati ham bor. Xomaki rasm ham olingan bilim va malaka asosida yaratiladi. Xomaki rasmda talabadan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ulaning vazifasi, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olish kerak. Ko'pincha "xomaki" tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi - shaklning chiziqli konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, uncha muhim bo'lmagan narsalarni chetga chiqarib tashlab, e'tiborni asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm talabaning mustaqil ishga tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talabani tasvir qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlari ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv-akademik rasm chizishda xomaki rasmlardan ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsad ko'zlanadi: maqsad avval olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish - tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - avval olingan bilim asosida natura bilan buyum haqida mantiqiy fikrlashdir. Talaba xomaki rasm chizish davomida ushbu natura, uning shakl qurilishi, konstruktiv tuzilishi, anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish samarasiz bo'ladi. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirishni, ma'lum bir uslubiy bosqichlarni taqozo etadi. Birinchi kurs talabalari uchun ancha yengil, yuqori kursdagilarga esa murakkab o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyani beradi. Birorta rassom yo'qki, xomaki rasm chizish uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsin.

O'tmishdagi mashhur rassomlar o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Italiya rassomi Chennino Chennini o'zining "Rangtasvir haqida asar" kitobida shunday yozgan edi: *Doimo, biror kunni kanda qilmay, biror-bir narsaning rasmini chiz; bu senga juda katta foyda keltiradi.* Hayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni ilg'ab olish, ushbu odamning o'zgacha xususiyatini topa olishdan iborat. Shuning uchun ham ko'proq kuzatilasi, ko'proq naturadan rasm chiziladi, muntazam ravishda xomaki chizgilar qilinadi.

Inson yuzini hayotiy, ta'sirchan, jonli tasvirlash realist rassom uchun o'ta muhim. Inson portretini tasvirlar ekansda, uning mimika muskullarining ishlashini asosli o'rganiladi. Bu foydadan xoli emas. Chunki, mimika muskullari orqali portret psixologiyasi o'rganiladi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi yosh rassomga bu odamga xos boigan eng xarakterli

xususiyatlarni ilg'ab olish va badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. O'quv vazifalari portret san'atini egallashga ko'maklashadi. Odam boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga - ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

Portret chizish san'atini egallashda eng qulay usul avtoportret chizishdir. Rassom o'z rasmini o'zi chizar ekan, ishni nihoyasiga yetkazish uchun qancha vaqt talab etilsa, ko'zgu oldida shuncha vaqt tura olishi mumkin.

5-ma'ruza. Badiiy ta'limda qalamchizgilarning ahamiyati.

Xomaki rasm – odatda qisqa, ba'zan esa juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga boqliq bo'lmagan xolatlarda bajariladigan predmet dunyosining umulashtirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniladi.

Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir - chikirlarsiz tipik va o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umulashtirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda "yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi".

Homaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmdan boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvoffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chizgi – xomaki rasmga nisbatan ancha to'liq hisobdanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasmiga qaraganda ancha qisqa vaqt oraliqida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga ko'yadigan talablariga boqliqdir.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitish kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi.

Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmdan chizish uchun sarflanadigan vaqtdangina emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo'llab chizilishi mumkin.

Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu hildagi usullari keyinchalik nafaqat umuman rasm chizishga o'rgatish, balki yuqorida aytib o'tilgan bo'lajak rassom uchun zarur bo'lgan sifatlar yiqindisini tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lgan (yoki mazmunan shu kabi) ob'ektlardan foydalaniladi: 1) «o'lik» (tirik bo'lmagan) natura, (natyurmort) 2) o'simliklar, 3) hayvonlar, 4) inson.

Ta'lim uslubiyotini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya'ni o'quv mashg'ulotlari izchilligi va mazmuni va ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib etish kerak, va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o'rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur.

Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari.

Idrok etishning «Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka» tasvirlash usuli ta'lim jarayonida bosqichlar bo'yicha davomli o'quv rasmini bajarishda o'z tasdiqini topadi.

Tasvirlanayotgan predmet shaklini umulashtirilishining so'ngi yakuniy bosqichi - qoo'ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yio'ish va birlashtirishdan butun rasm bo'ylab aniqlik kiritish va nur soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya'ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir.

Naturadan uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqagina xomaki rasm chizib olish asosan tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o'stirish uchun mo'ljallanadi.

Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmini ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umumlashtirish haqida alohida gapirishga to'o'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlash xomakilarning oltita turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat:

- naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;

- kombinastiya usuli (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz – xotira bo'yicha) bilan ijro etiladigan xomaki rasmlar;

- faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati musthkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;

- insoning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik ob'ektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan boo'liq tasavvurlar bo'yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;

- kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;

- hayolga keltirish bo'yicha – biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, syujet va xokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvirning xomaki rasmlari chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiy alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vao'tda sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan.

Agar bunda ijro vaqti cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizgiga aylanib qolishi mumkin.

Bu shart-sharoitlardan bittasi-naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o'z navbatida naturaning qo'zo'almasligi yoki qo'zo'alish darajasi (harakat tezligiga)ga boqliq bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xomaki rasm chizish usuliga eng avvalo ikkita omil ta'sir qiladi: vaqt va naturaning holati.

Bu o'zaro bir-biriga boo'liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishlash qobiliyatiga (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifatiga) shuningdek tashqi ob'ektiv shart-sharoitlar ham ta'sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo'ladi (sinf, hona yoki ko'cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo'lka, sayilgoh va xokazolar).

Naturadan kuzatish bo'yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilangina, ya'ni natura umuman qo'zo'almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarilishi mumkin.

Bunday qiyofa natura eng avvalo, so'zsiz jonsiz predmet (masalan, san'at asarlari, haykaltaroshlik asarlari, me'morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, ba'zi manzara turlari, shuningdek maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo'lishi mumkin.

Xomaki rasmning maqsadi naturani to'liqsiz umumlashtirilgan ko'rinishini aks ettirishdan iborat bo'lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixotir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo'lsa-yu natura hali qimirlamay turgan bo'lsa, u holda xomakilikdan chizgiga (lavhaga) o'tish mumkin. Bunda xatto qoqoz chetiga qo'shimcha, naturaning ba'zi bo'laklarini ancha batafsilroq chizgilarini ham chiqarsa bo'ladi (albatta, bunga zarurat tuo'lsa). Bunda: holatda vaqt omili ish xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar naturaning qo'zo'almasligi shartli va tasodif bo'lsa, ba'zi hollarda u vaqtinchalik bo'lsa, ya'ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun no'malum bir soniyada o'z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o'zgartirib qolsa va xatto nuqtai nazardan umuman yo'qolib qolsa u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xakteri jiddiy tarzda o'zgaradi. Bunday holat tasodflarga quyidagilarni keltirish mumkin: saylgoh o'rindio'ida o'tirgan kishi o'rnidan turib ketsa, yohud jimgina yotgan it birdaniga akillay boshlasa ushbu holat xomaki rasmini chizayotganda sodir bo'lishi mumkin.

Peyzaj xomaki rasmini (yoki chizgini) chizayotganda ob-havo yoki yoritilish holati o'zgarmasligiga ishonch hosil qilish kerak emas. Chunki, birdan shamol turib qolishi, tekis suv yuzasini to'lqinlar, osmonni to'satdan qora bulutlar qoplashi mumkin).

Tabiatda tirik natura rassom ustaxonisidagi kabi yoki sinfdagi o'quv ishi kabi bir maromda turmaydi. U o'z hayotida davom etadi va uning tabiiy, vaqtincha qo'zo'almay turishi darhol, ba'zida esa kutilmaganda aks holat kasb etib qolishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, aynan tirik modelning bunday qo'zqalmas shartlari, ya'ni tinch, bamaylixotir qiyofa rassomning kuzatuvchan ko'zlari uchun eng qimmatlidir. Aksincha, bir hil holatda maxsus turgan tirik model doimo o'z ifodaliligini yo'qotadi, chunki har qanday holatda ham sun'iylik mavjud bo'ladi. Buning ustiga o'sha sizga qarab turgan siymo ham ohir-oqibat charchaydi, bu esa uning qiyofasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Shuning uchun ham xomaki rasmda qo'zqalmas tirik modelni muhrlab qo'yish uchun rassom doimo shay turishi lozim. Ishlash uchun mavjud vaqt davomida kuzatish va xomaki rasmni bajarish uchun har bir daqiqa, xatto har bir soniyadan unumli foydalanib qolish zarur bo'ladi. Shuning uchun usta rassomlar xomaki rasmlarni ishlashda "qisqa", "juda tez", "bir nigohda", "yashin tezligida", "bir zumda" tasvirlash kabi so'zlarni ishlatishlari ham bejiz emas.

Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi kuzatish natijasini bir zumda qoqozga aks ettirishdir.

Sinfdagi masho'ulotlarda, ayniqsa xomaki rasm chizishga o'rgatilayotgan dastlabki paytlarda o'quvchilar kuzatishga ham, rasm ijrosi uchun ham doimo etarli vaqtga ega bo'ladilar.

Lekin sinfdan tashqari paytda xomaki rasm ustida ishlash, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kuzatish, ham chizish paytida (xatto muhim turgan natura ustida ishlanayotganda ham) to'satdan uzilib qolishi mumkin. Ba'zan rassom tezroq o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi, bir varaqqa naturaning tipik hamda xarakterli xususiyatlarini darhol aks ettira qolishga harakat qiladi. Kuzatish vaqti ijro vaqtiga to'o'ri kelib qoladi. Ana shunday holatda naturani ko'rish idroki bilan, ijro etish keskinlashadi. Ya'ni e'tiborni chalo'itmay turib mayda, ikkinchi darajali ikir-chikirlarga berilmay, darhol predmetning eng asosiy zarur tomonlarini ilo'ab olishga, eng oddiy vositalardan minimal darajada foydalanishga harakat qilinadi.

Eng avvalo, bir nechta ishonchli chizgilar bilan, (yoki tus beruvchi doo'lar bilan) bo'lajak tasvirning o'zni va o'lchamini- uning abrisini belgilab olish zarur. Ana shunga qarab asosiy qismlari, konstrukstiya va harakatlarini hisobga olgan holda naturaning butun massasini tushurib olish kerak.

Agar natura o'z qo'zo'almas holatini saqlab turgan bo'lsa, darhol belgilangan fikrlarni detallashtirishga kirishmoq, eng asosiy, xarakterli xususiyatlarni tezroq ilo'ab olmoq zarur.

Kombinastiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo'yicha) xomaki rasmlar chizish.

Natura harakatiga kela boshlashi, o'z holatini o'zgartira borishi bilan va rassom ko'zidan iz qola boshlashi bilan ana shu xomaki rasmni nihoyasiga etkazish uchun xotiradan ko'rish qobiliyatingizni ishga solishi to'o'ri keladi.

Naturadan boshlanib, so'ngra uning ishtirokisiz xotirada tugallangan xomaki rasm "Kombinastiyalashgan" hisoblanadi.

Kuzatish vaqtining qisqarishi enda xomaki rasm ustida ishlashni ham murakkablashtiradi va xotiraga zo'r berishni talab qiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda ko'p uchraydi.

Xotiradan chiziladigan xomaki rasm chizish.

Uzluksiz, doimiy harakatda bo'layotgan natura holatini bri zumda aks ettirish ancha mushkul. Bunday paytda hammasini birdan nazardan qochirmay ilo'ab olish va darhol, hech kechiktirmay xotirangizga muhrlanganni qoo'ozga tushirish zarur. Ana shunda xotiraga muhrlangan ko'rinish o'z "yangiligini" yo'qotmaydi. Bunga misol qilib oldingizdan tez yugurib o'tayotgan yoki to'siqlar osha sakrab yugurayotgan sportchini ko'rishimiz mumkin. Bunday vazifani uddalash amalda mumkin. Buning uchun o'ta tez, bir nigohda harakatdagi ifodani ilo'ab olish kerak bo'ladi (masalan, yugurib borayotgan sportchining gavdasi, oyoqlari bosh va qo'llari harakati). Lekin bu o'rinda xomaki bajarilgan chiziqlarni bir erga to'plash, ya'ni komponovkalashni unutmaslik kerak.

Ko'rish qobiliyati kuchli bo'lganda, juda qisqa ba'zan esa bir soniyada xotiraga muhrlanadigan detallarni ham umumlashtirib yuzaga chiqarish mumkin.

Ana shu tarzda ijro etilgan xomaki rasm xuddi qoqozga muhrlangan xotira kabi bo'ladi. Bundan keyingi endi uning vazifasi-ko'rilgan narsa haqida eslatishdan bo'lak narsa emas.

Bunday xomaki rasmlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritish faqat boyagi sportchining harakati takrorlangandagina (deyarli bir xil harakat), yana xotiraga olish yo'li bilan bajariladi.

Faqat ko'rib xotirada saqlash qobiliyatiga tayangan holda xomaki rasm ustida ishlash zarurati faqat tashqi shart –sharoitlar kuzatish imkonini beradigan vaziyatlardagina tuo'iladi. Masalan: shahar transportida sizning qarashingizda o'tirgan yo'lovchining boshi siz o'ylab qo'ygan kartina personajiga o'xshaydi va siz anchadan beri qidirib yurgan ob'ektingiz chiqib qoladi. Uni naturadan chizishning iloji yo'q, chunki u o'z nigohini olib qochishi, boshini burishi yoki qiyofasini o'zgartirishi, shuningdek transportdagi vaziyat to'o'ridan to'o'ri naturadan chizish imkonini bermasligi mumkin va xokazo.

Siz o'z oldingizga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun boshqa yo'lni tanlashingizga to'g'ri keladi. Buning uchun ko'rish qobiliyatingizni ishga solasiz: naturangizga sezdirmay uni kuzatasiz, o'rganasiz, xarakterli o'ziga xos xususiyatlarini (ayniqsa undagi ajralib turadigan xarakterli xususiyatlarini) eslab qolishga harakat qilasiz. Yo'lovchi o'z bekatida tushib ketdi. Shunda darhol, hech ham kechiktirmay cho'ntak albomingizni olib (aks holda xotirangizdan ko'tarilib ketishi mumkin) o'sha yo'lovchi holatini qanday eslab qolgan bo'lsangiz, shundayligicha xotiradan xomaki rasmini chizib olasiz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin rassom ko'rish xotirasini rivojlantirishi uchun harakatdagi odam, ayniqsa o'z xarakteri va harakatlanishi tezligi har xil bo'lgan bir guruh odamlarga qarab xomaki rasmlar chizishni talab etadi.(masalan, basketbol, futbol, xokkey kabi sport o'yinlari vaqtida, hayvonot boo'idagi hayvonlarga qarab xomaki rasmlar chizish foydadan xoli emas.

Shuni nazarda tutish kerakki, kuzatish natijasida esda qoladigan obrazning sifatiga, uning barqarorligiga ko'plab sabab va vaziyatlar ta'sir qiladi. (idrok qilishning takrorlanishi, kuzatish faolligi va tezligi, shuningdek, zarurat tuqilganda ko'rilgan narsani eslab qolish qat'iyiligi). Ayniqsa qisman biror holatda (yoki sxematik ko'rinishda) naturadan qoqozga tushirilgan chizgini diqqat bilan kuzatgan va o'rganilgan narsa xotirada yaxshi saqlanib qoladi.

Ko'r-ko'rona, hech qanday tahlilsiz, faqat ko'chirib qo'ya qolingan narsa odatda xotirada uzoq saqlanmaydi.

Tasavvur qilib xomaki rasm ishlash.

Tasavvurda xomaki rasm chizish naturani bevosita kuzatish bilan boqliq emas. U avval idrok qilingan, predmet olami va ongda muhrlanib qolgan hodisalar asosidagina ijro etiladi. Idrokka (qabul qilishga) nisbatan tasavvur yanada umumiyroq xarakterga ega. Ularda tafsilot kamroq bo'ladi va faqat predmet va hodisalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvurda chizilgan xomaki rasm "o'zidan chiqarib" iborasiga yaqin va o'zining mantiqiyiligi, bilan bevosita naturaga qarab chizilgan xomaki rasmdan farq qiladi.

Tasavvurda rasm chizayotgan kishi uni qamrab turgan vaqt va natura holati kabi omillardan xoli bo'ladi. U bamaylixotir, butun diqqat-e'tiborini xomaki rasimga qaratib ishlashi, zarur ifoda va tasvirning ishonchligiga erishgan holda faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Eng oddiy vazifa – polda turgan oddiy stul rasmini tasavvurda chizish masalasini hal qilish uchun u ana shu stulning shaklini, uning konstruktiviyasini va asosiy o'lcham nisbatlarini eslay olish lozim.

Xo'sh, qaerdadir yuqorida va pastki nuqtai nazardan ko'rinadigan xuddi ana shu stul qanday ko'rinishiga ega bo'ladi? Predmet shaklining qurilishi qancha murakkab bo'lsa, ma'lumki, uni "o'zidan chiqarib" tasavvurda chizish ham shunchalik qiyin kechadi.

Rasm chizuvchi ongida (tasavvurida) predmetning kenglikdagi obrazini tiklash vazifasi turadi. Bunday tiklash jarayoni nafaqat predmet shakli haqidagi tasavvurni, balki uning qurilishi, nisbatlari, harakat yo'nilishi va tezligi kabi boshqa kenglikdagi nisbatlarini ham o'z ichiga oladi.

Masalan, agar odam qaddi-qomati kabi murakkab tirik shaklning naturasiz, o'zidan chiqarib xomaki rasmini (aytaylik bo'lajak kartina eskizi uchun) umumlashgan holda chizadigan bo'lsak, buning ustiga bu tasavvurdagi naturamiz tez harakatda, burilishda yoki boshqa holatda (aytaylik, cho'qqidan tezlikda tushib kelayotgan chano'ichi) bo'lsa-vazifa ancha murakkablashadi.

Xomaki rasm ijrosidagi oldin xotirada tasvir obrazini, uning qurilishini tasavvur qilish, umuman ushbu shakl ma'lum nuqtai nazardan qoo'ozga qanday o'lchamni egallashini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak bo'ladi. Faqat shundan keyingina, odamning plastik anatomiyasini xaqidagi bilimlarni xotiraga olib, "o'zimizdan chiqarib" bir varaq qoo'ozga harakat qalamsini belgilab olgandan keyingina, buning ustiga gavda, bosh, oyoq-qo'llar nisbati, ularning o'lchamlarini, harakat paytida qisqarish proporsiyalarini, yoritilish holatini hisobga olgan holda chizishni boshlash mumkin.

Ma'lumki, inson qaddi-qomatining "o'zidan chiqarib" xomaki rasmini chizish faqat inson tanasining qurilishi haqidagi bilimlar etarli bo'lgan taqdirdagina yaxshi amalga oshishi mumkin. Bunday bilim va ko'nikma esa faqat inson tanasini doimiy kuzatish va natura hamda tasavvur va xotiradan qisqa chizgilar chizish, shuningdek yalono'och va kiyimdagi modellardan muntazam ravishda foydalanish bilangina erishish mumkin.

Shuningdek, inson tanasining bosh, qo'l, oyoq kafti suyaklari kabi murakkab qismlaridan qilingan mashqlar ham yaxshi natijalar beradi.

Har qanday holatdagi va tez harakatlanayotgan inson tanasini "o'zidan chiqarib"(naturasiz) erkin va ifodali tasvirlay bilish faqat insonning plastik anatomiyasini, birinchi navbatda, skelet qurilishi va skelet mexanizmi harakatlarini yaxshi bilish natijasida "naturadan" va "xotiradin" qilingan xomaki rasmlarda mashq va yanada ko'proq mashq oqibatida yuzaga keladi.

Tasavvurda qilingan o'quv xomaki rasmlar insonning har hil xolatlarida, ya'ni harakatsiz va harakatlanayotgan holatlarini tasvirlash malakalarining to'ldirilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xomaki rasmlarni tasavvurda bajarishga o'rgatishga davomli o'quv vazifalaridagi o'tilgan mavzularning o'zlashtirilishini tekshirib ko'rish uchun yordamchi mashqlarga ko'p o'rin ajratiladi.

Bunday tasavvur bo'yicha xomaki rasmlar chizishning tekshiruv mashqlari o'quvchilarda "o'zidan chiqarib" ishonch bilan chizishda muhim qobiliyatni rivojlantirishga so'zsiz ko'mak beradi. Ayniqsa bu hol maqsad qilib qo'yilgan yangi va yangi qirralar tobora murakkablashib borganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'atning hamma tur va janrlarida tasavvurda xomaki rasm chizishning asosiy vazifasi – badiiy obraz yaratish ishida turtki bo'ladigan ko'mak, yordam ko'rsatishdir.

Naturasiz ishlanadigan xomaki rasmlar (ya'ni "o'zidan chiqarib") murakkab ijodiy fikrni yuzaga chiqarish uchun eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san'atga o'rgatishda tasavvurda xomaki rasmlar chizish borasida o'quv dala amaliyotlarining ahamiyati kattadir.

Kompleks xomaki rasmlar (barcha usullarni qo'llagan holda).

Eng so'ngi va eng murakkab o'quv xomaki rasmlar turi bu – kompleks usulda bajariladigan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullarni hammasidan qisman foydalangan

holda (naturadan, kombinastiyalashgan yoki dastlab naturadan, keyin xotiradan, shuningdek faqat xotiradan va tasavvurdan) ijro etiladigan xomaki rasmlardir.

Kompleks usulni qo'llash zarurati asosan ko'pgina bir vaqtning o'zida harakatlanayotgan ob'ektlardan xomaki rasm chizishda paydo bo'ladi. Binobarin, bir guruh odamlar, ayniqsa xomaki rasmda guruhni tashkil etadigan odamlarning o'zaro joylashuvini xomaki rasmda qidirish va o'z o'rniga qo'yishda bu usulga murojaat etiladi.

Kompleks xomaki rasm chizishga o'rgatish rasm darslarida o'tkaziladi. Lekin amaliyotda u "Kompozistiya" o'quv kursida ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu xomaki rasmlarni shartli ravishda "Kompozition" deb atash ham mumkin. o'z ijro usuliga qarab ular u yoki bu holatda naturani kuzatish bilan boqliqdir. Shuning uchun ularni hayolan ijro etiladigan badiiy obrazning kompozition echimi- xomaki –eskizlar bilan chalkashtirish kerak emas.

Hayolan xomaki rasmlar chizish.

Hayolan xomaki rasmlar chizish-bu juda umumlashgan xomaki rasm – eskiz bo'lib, unda badiiy tasavvurning muayyan grafik natijasi sifatida paydo bo'ladigan badiiy obraz gavdalanadi.

Rassom xayoloti ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi olingan tasavvurlari va undagi idrok etish zahirasiga asoslangandir. Rassom o'z hoxishiga qarab bu tasavvurlarni qayta va qayta shakllantirib, ularni kombinastiyalab, ular o'rtasida boo'lanish yasab yoki ularni bir-biriga zid qo'yib badiiy obrazning bir butunligiga, maksimal darajada ifodaliligiga erishadi.

Tasavvurlarning o'zi etarli darajada umumlashgan bo'lganligi sababli ham xayolot kuchi bilan qayta ishlangan xotirotlar idrok etish ob'ektidan ancha uzoqlashadi, lekin shu bilan birga u o'zining realistik tasvir uchun zarur bo'lgan alomatlarni saqlab qoladi.

Tasavvur qiling, bir-biri bilan yagona harakat yoki biror oddiy syujetda ifodalangan mazmun bilan boqliq ikki kishini "o'zidan chiqarib" (tasavvurda) tasvirlashdek oddiy vazifa ham tasavvur qilish, xayolotga berilishni talab etadi.

Mazmunning ma'no va mohiyatiga chuqur ta'sir qiladigan, ya'ni tasvir ifodasiga ta'sir qiladigan ikki shaklning o'zaro joylashuvi va ichki boqlanishi kabi juda ko'plab har xil variantlar tuqilishi mumkin.

Eng yaxshi variantni qidirib topishda ularni o'zaro bir-biri bilan taqqoslash zarur bo'ladi.

Rassom o'zi o'ylab qo'ygan ijodiy fikri uchun muayyan yorqin javob olishi kerak bo'lsa, xomaki rasmning asosiy alomatlari–uning umumiylashgani, mantiqiy jihatdan to'qriligi

kabilar katta ahamiyat kasb etib qoladiki, ular tashqaridan qaraganda go'yo tugalsizdek ko'rinadi. Vaholangki aynan ana shu tugalsizlik badiiy tasavvurning keyingi faoliyatiga ko'proq turtki bo'ladi, muallifni ko'proq ifodalikka undaydi.

Tugallanmagan xomaki rasm topilgan echimga dastlabki fikrga muvofiq tez va yaqqol ishonch hosil qilish, unchalik qiyinchiliksiz yaxshilash tomonga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bunda kiritiladigan o'zgaritirishlarni avvalgi variatlaridagi bilan solishtirish uchun aynan ana shu xomaki rasmsga kiritish ham mumkin bo'ladi.

Nihoyasiga etkazilgan rasmdagi biror qismni texnik jihatdan o'zgartirish, qo'l yoki oyoqni biroz bo'lsada surish, tana yoki boshni biror tomonga burish, tana harakatini kuchaytirish anchagina qiyinlik tuo'dirishi ma'lum.

Qalamda engilgina ishlangan xomaki rasmda esa bu ish unchalik qiyinlik tuo'dirmaydi. Chunki bunda avval belgilab qo'yilgan narsani o'chirish yoki yo'q qilish zarurati tuo'ilmaydi. Oddiygina solishtirish bilan badiiy fikrning yangi, yanada ifodaliroq variantini topish imkonini beradi. Xomaki rasm-eskizni muddatidan oldinroq tugatib qo'yish keyingi ishga halaqit beradi, tasavvurni toraytiradi.

Davomli va uzoq muddatli rasm chizish bilan bir vaqtda tirik odam boshidan muntazam ravishda homaki rasm va chizigilar qilish zarur. Bunday homaki rasmlar nafaqat odam boshini tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki tasvirda real hayotni tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarur.

Realist-rassom insonni harakatda, uning barcha go'zalliklarini tasvirley olishi kerak. Davomli rasm ustida ishlash talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizili, konstruktiv asoslar yordamida tasvirni diqqat bilan va metodik bosqichlarda tasvir qurishga majbur etadi. O'quvchi davomli o'quv rasmda asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvir kurishning qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. Binobarin, u o'quv-akademik rasmda bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm o'rtasidagi farqni ocha borib ular turli yo'nalishga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasm bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yaratiladi. Ijodiy rasmda esa aksincha-olingan bilim va ko'nikmalardan badiiy obraz yaratish uchun foydalaniladi. Shuningdek avval olingan bilim va malakalar asosida yangilik yaratadi.

Xomaki rasm ham olingan bilim va malakalar asosida yaratilib, rasmda endi o'quvchidan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ularning vazifalari, maqsad va yo'nalishlarini to'Iri aniqlab olish kerak. Ko'pincha «xomaki» tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar. Bu albatta to'Iri emas.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralilida kuzatilayotgan natura xaqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylik va har xil ishlanishda bo'lishi mumkin: ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va xokazo.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, rasm chizuvchini uncha mohiyati bo'lmagan narsalarni chetga chiqarib tashlab, asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm o'quvchida mustaqil ishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talaba tasviriy savodxonligi qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk ustoz rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv – akademik rasm chizish vazifalarida xomaki rasmlar ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi: Avval o'tilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish-bu tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm – bu avval olingan bilimlarni hisobga olgan holda natura bilan buyum haqidagi mantiqiy fikrlashdir. Rasm chizuvchi xomaki rasm chizish davomida ushbu natura haqida, uning shakl qurilishi konstruktiv tuzilishi anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zahirasiidan foydalanadi.

Dala amaliyoti davrida o'quv mashlulotlarining eng ko'p mahsudorligiga talabalar aynan xomaki rasmlar chizishda erishadilar. Bunda ular ham naturani o'rganish ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilish tomonlarini namoyon etadilar.

Shuning uchun ham xomaki rasmlar agar rasm chizuvchi natura haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganidagina foydalidir. Ma'lum vazifalar aniq yo'naltirilgan maqsad bo'lmasdan xomaki rasmlar chizaverish o'quvchini ijodan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinstiplarsiz bu ish maqsadsiz bo'lishi mumkin. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirish ma'lum bir uslubiy bosqichlikni taqazo etadi. Dastlab o'quvchilar uchun ancha engil, o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xomaki rasm va chizgilarda asosiy e'tiborni xarakterni ochishga, kishining obrazli xarakteristikasini ko'rsatishga qarating. Eng asosiysi davomli rasm va xomaki rasmga bo'lgan yondoshishni to'g'ri tushinishdir. Davomli o'quv rasmda biz akademik rasmning asosiy qoidalari – bosh shakli qurilishining konstruktiv tuzilish anatomik qonuniyatlarini o'zlashtiramiz; xomaki rasm chizishda esa insonning emostional holatini – tipajini illab olish talab etiladi.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyatini beradi. Birorta rassom yo'qki, u o'zi bilan xomaki rasmlar uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsa. O'tmishning mashhur rassomlari o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Mashhur rassomlar doimo shuni ta'kidlaganlarki, rassom biror kunni ham o'tkazmay, garchi u bu maqsad uchun hech narsa bo'lmasa ham biror-bir narsaning rasmini chizishga undaganlar chunki u shogirdga keyinchalik juda katta foyda keltiradi. Hayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni illab olish, ushbu odam uchun o'zgacha bir xususiyatni topa bilishdan iboratdir. Shuning uchun ham ko'proq kuzating, ko'proq naturadan rasm chizing, muntazam ravishda xomaki chizgilar qiling.

Tasvirda inson yuzining hayotiy ta'sirchanligini bera olish realist rassom uchun o'ta muhimdir. Hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi mohir pedagogni tarbiyalash ekan, inson tanasi, bosh shakliva atrofdagi barcha shakllarning rasmini chizishga o'rgatish tizimida xomaki rasmlar chizish ishiga jiddiy e'tibor berish lozim. Xomaki rasmlar va qisqa chizgilar boshlovchi rassomni ijobiy faoliyatga uzluksiz boo'lab qo'yadi. Ular o'quvchini mustaqillikka va o'quv mashq tasviriy vazifalarni hal etishga o'rgatadi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi rassomga ushbu odamga xos bo'lgan eng xarakterli xususiyatlarini ilo'ab olish, yosh rassomga badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. Muvaqqafiyat bilan hal etilgan o'quv vazifalar rasm chizish san'ati bilan qiziqishga, keyinchalik esa tasviriy san'atni mukammal egallashga bo'lgan intilishlarga foyda bo'ladi.

6-mavzu. Inson qomati chizgilari.

Inson qomati rasmini chizish skelet va uning asosiy qismlari tuzilishini o'rganish bilan chambarchas boo'liq. Shuning uchun skelet tuzilishi bo'yicha dars masho'ulotlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Skelet tirik odam (yoki anatomik model) pozasiga yaqin pozada, tik turgan holatda, ikkala qo'li pastda turgan halatda va ikkala oyog'iga bir xil tayanib turgan holatida joylashtiriladi.

1. Bosh suyagi.
2. Bo'yin umurtqalari.
3. Ko'krak qafasi.
4. Elka suyagi.
5. Tos suyagi.
6. Umurtqa poo'onasi.
7. Son suyagi.
8. Tirsak suyagi.
9. Bilak suyagi.
10. Qo'l panjalari suyagi.
11. Katta boldir suyagi.
12. Kichik boldir suyagi.
13. Oyoq panjalari suyagi.

Skelet inson tanasining konstruktiv va dinamik ko'rinishi bo'lib hisoblanadi va u xarakatlanuvchi asos vazifasini o'taydi. Odamning xarakatlanishi, yurishi, yugurishi, mehnat qilishi, sport bilan shuo'ullanishi va hok.lar ushbu konstrukstiyasining tuzilishiga boo'liq.

Suyaklarning birlashgan joyi (bo'o'im va birikmalar) o'zaro xarakati mushaklarga boshni burish, tana asosini egish va bukish, qo'lni ko'tarish va tushirish, kaftni mushtum holatiga keltirish, hamda har bir barmoqni alohida xarakatga keltirish imkonini beradi. Rasm chizish choo'ida o'quvchilar e'tibori tors (tana asosi), bosh va qo'l-oyoqlarni xarakatga keltiruvchi bo'o'implarning turli-tumanligiga qaratiladi. Xarakat davomida bo'o'implarning ahamiyatini amaliy jihatdan tirik odam misolida ko'rsatish masho'ulotni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi. Bu rassomlar uchun skelet va tirik inson tanasi o'rtasida uzviy boo'liqlik mavjudligini yaxshiroq anglab etish imkonini beradi.

Tasviriy san'atning barcha turlarida bo'lgani kabi, inson skeleti ham ma'lum ketma-ketlik asosida chizilishi kerak. Avvalo qoo'ozga tasvirning umumiy holati va joylashadigan o'rnini ko'rsatuvchi engil shtrixlar chiziladi. Skelet balandligi vertikal bo'yicha o'mrov suyagidan (to'sh suyagi tutqichidan) tovongacha bo'lgan oraliq hisoblanadi va u belgilab qo'yiladi. Oyoqlar joylashuvchi yuzada gorizonta tekislikdagi oyoq o'rnini ko'rsatuvchi perspektiv to'o'ri chiziqlar chiziladi.

So'ngra skelet balandligini oyoq suyaklarini birlashtiruvchi chiziq orqali ikkiga bo'linadi, o'mrov suyaklari birlashgan joydan esa ikki elka suyagini birlashtiruvchi chiziq tortiladi.

Vertikal chiziqning yuqori uchidan pastga tomon butun tana balandligini hisobga olgan holda Bosh balandligi aniqlanadi va shundan so'ng butun skeletning balandligi kelib chiqadi. Son suyaklarining do'mboqlari o'rtasidagi oraliq masofa va o'mrov suyaklari holati o'zaro va butun skeletga nisbatan solishtirib aniqlanadi.

Aniqlangan son suyaklari chiziqlari uchidan pastga, oyoqning tizza bo'o'implari tomon yo'nalgan to'o'ri chiziqlar o'tkaziladi. Tizza bo'o'implaridan esa tovongacha chiziq tortiladi. Shundan so'ng skeletning yuqori qismini shakllarini ishlashga o'tiladi. Son chizio'i asosida tos suyagi, uning balandligi va umumiy shakli (trapestiya) aniqlanadi. Dumo'azadan (tos suyagining eng pastki qismida joylashuvchi qismdan) boshlanuvchi va Bosh suyagigacha davom etuvchi umurtqa poo'onasi yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq chiziladi. Yuqorida

aniqlangan Bosh suyagi balandligi butun Bosh suyagini chizishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shundan so'ng Bosh suyagining burilish burchagini ko'rsatuvchi bo'yin suyagi chiziladi. Ko'krak qafasi shakli va o'lchamlari umumiy belgilanadi –umurtqa poo'onasidan yuqori qismidan elka suyaklari o'tuvchi to'sh suyagigacha.

Rasmda orqa tarafdin ko'krak qafasi ustida yotuvchi kurak suyaklarining umumiy ko'rinishi engil chiziqlarda belgilab olinadi. Shundan so'ng qo'l suyaklariga mos keluvchi sxema chiziqlari - elka chiziqlari oxiridan kaftgacha, kaftdan kaft usti suyalarigacha chiziq chiziladi.

Skelet chizishdagi ketma-ketlikni pedagog skeletdagi suyak va birikmalar asosida tushuntirib beradi. Bunda u quyidagi asosiy nisbat munosabatlarini eslatib o'tishi kerak: odatda pastga tushirilgan qo'l son suyagining o'rtasigacha cho'ziladi, son suyagi uzunligi jihatidan boldir suyagi bilan deyarli bir xil, elka va tirsak suyaklari ham bir biriga teng deb olinishi mumkin. Bosh suyagining butun skeletga nisbati esa 1:7 yoki 1:7,5 nisbatda bo'lishi mumkin.

Rasm chizishdagi ketma-ketlik va tizimlilik rassomda tashkiliylik va ixchamlilik xususiyatlarini shakllantiradi va kelajakda insonning turli holatlarining tasvirini chizishda san'at asarlari yaratishda hamda ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda mustaxkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Skelet sxemasi chizilganidan keyin, suyak shakli va suyaklarning birlashish xarakterini aniqlashtiruvchi chiziqlar chiziladi. Asosiy suyaklarning o'lchamini aniqlashda sxema va natura chiziqlari mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi bosqichda skeletning shtrixli tasviri, yoruo'-soyalik tushishi natijasida uning hajmi ko'rsatilganida. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilar skeletning sxematik shakllarini to'o'ridan, yon tomondan va alohida bo'laklarini qisqa tasvirlar orqali mustaqil bajarishlari maqsadga muvofiq.

8-Jarayon

7-ma'ruza. Inson qiyofasini akademik qalamtasvir usulda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish.

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badiiy o'quv dargohlarida ham inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'plab vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalano'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy masho'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi.

Tirik modeldan rasm chizishning qiyin tarafi shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib

turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va xarakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari model o'z holatini o'zgartirganida, rassom o'z tasavvuri va xotirasiga asoslanib chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

Tirik inson modelini (yalano'och inson qiyofasini) chizish masho'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Model taglik ustida taxminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyoo'iga tiralib – ushbu holatda chap oyoo'iga tiralib turishi kerak. Model holati Gudonning “Ekorshe”sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu erda chap oyoq oo'irlik markazidir. O'ng oyoq esa chap oyoqqa nisbatan biroz oldinroqda joylashgan va erkin holatda turibdi.

Modelga yuqori-yon tarafdin kuchsiz yoruo'lik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning “Ekorshe”sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalarni tirik odam rasmini chizishda taqqoslab nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasavvur etishdan iboratdir.

O'quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo'yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyoo'igacha perspektiv o'zgarishlarda ko'rish imkonini beradi.

Rassom tasvirning joylashish o'rni va o'lchamlarini – rasm kompozistiyasini belgilaydi. Model pozasi va xarakatidan kelib chiqqan holda, modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan engil chizib chiqiladi.

Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyo qosti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni bo'lib hisoblanadi. Oo'irlik markazidan o'tuvchi vertikal chiziq tayanch maydonidan ham o'tganda model muvozanat holatida tik turgan deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo'ladi.

Bir oyoqqa tiralib turganda model holati oo'irlik markazi bo'ylab tushirilgan vertikal tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o'tadi. Yalano'och odam tasviri chizilganda model modelsining holati ana shunday bo'lishi lozim.

Rasm chizishning dastlabki bosqichida xarakat holati va asosiy nisbatlarni ko'rsatgan holda, butun modelni umumiy ko'rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san'at qonun va qoidalaridan bizga ma'lumki, tabiatdagi barcha shakllar geometrik sirtlarga o'xshash shakllar tarkibiga asoslanadi shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin.

Bu erda model xarakati yaqqol ko'zga tashlanadi. Elka kamari tosga nisbatan deyarli to'o'ri burchak bo'yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida, A.Dyurer ko'krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o'zgarishlarni ko'rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Oo'irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha vertikal chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib ikki tovonning o'zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq joylashadigan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiqdan (sonning tos bilan birlashgan qismi) pastga, oyoq joylashadigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi to'o'ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshio'idin erkin turgan oyoqning avval tizzagacha bo'lgan qismi, keyin esa tovon markazigacha bo'lgan qismi chiziq bilan belgilanadi.

Oo'irlik markazidan o'tuvchi va rasmda belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi vertikal chiziqning umumiy uzunligi model balandligini tashkil etadi. Tors erkin holatda turganida oo'irlik markazidan tushirilgan vertikal yarem chuqurchasidan o'tadi. hosil bo'lgan umumiy vertikal chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko'rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko'krak va bosh o'lchamini ko'rsatuvchi belgilar. Bu erda boshning o'rta chizio'i orientir qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va xarakati aniqlanadi. Ishning mazkur bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta'sir qiluvchi modelning yuqori, o'rta, pastki qismi nisbatlariga to'xtalib, pedagog rassomlarga baland, o'rta va past bo'yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo'lishini, shuningdek erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirib berishi kerak.

Bosh balandligi va yarem chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so'ng, engil chiziqlar bilan o'mrov suyaklari yo'nalishi chiziladi.

So'ngra modelning yarem chuqurchasidan to'sh suyagining hanjarsimon o'sio'i, undan kindik va rasmdagi asosiy o'zgarmas nuqtalardan biri bo'lgan tos suyagining boshlano'ich qismi - yonbosh suyak tomon cho'zilgan shartli o'rta chiziq aniqlanadi.

Rasmga ko'krak so'ro'ichlaridan o'tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o'tkaziladi va shu yo'l bilan tosning gorizonal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi.

Ikkita oyoqqa tirilib turgan model holatida tos gorizontal holatda bo'ladi. Tananing barcha oo'irligini bir oyoqqa o'tkazilganida, tos oo'irlik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizio'i yonbosh suyakning ko'rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o'rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana oo'irligini ko'rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko'rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o'rni o'zgarganligi tufayli, uning o'rnida chuqurcha hosil bo'ladi. Ikki son boshchalari o'rtasidagi chiziqqa parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo'yilgan tosning yuqori qismidan o'tuvchi, chiziq belgilanadi.

Tos chizio'iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o'tuvchi chiziqchiziladi (son boshchasi va to'piq o'rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar vertikal chiziqbo'yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi.

Modelning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo'lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, elka, qo'l, bo'yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi.

Ishning keyingi bosqichida o'chiro'ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o'chiriladi va tasvirning o'lchami va chegaralari natura bilan yana bir marotaba solishtirib tekshiriladi. Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko'rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmda aks ettiriladi va natijada nisbatlarni to'o'rilash va konturlarga shtrix bilan aniqlik kiritish imkoni paydo bo'ladi. Bunda modelning tors va boshdan boshlab, oyoq va qo'lgacha bo'lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qo'lning – elka, tirsak, tizzalarning bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yoruo'-soya yordamida tus beriladi.

Qo'l kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yoruo'lik-soya munosabatlari asosida ko'rsatiladi.

O'quv mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxlitligi buziladi. Yalano'och model rasmini chizish bosqichlari va uning qismlarni umumlashtirish.

Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Buanorotti, Rafael Santi, Kamoliddin Behzod, Buyuk tasviriy san'at asarlarining ijodi, akademik qalamtasvir sohasida jahon san'atiga qo'shgan hissalar.

Albrext Dyurer, Shoon, Rubeks, Ivanov, Sopochnikov, Losenko, O'rol Tansiqboev, Malik Nabiev, Raxim Axmedov.

Behzod Kamoliddin (1455-Xirot- 1536)- buyuk miniatyurachi musavvir, Sharq uyg'onish davri etuk sanatkori. Hirot miniatyura maktabi asoschisi; muzahhiblar etakchisi, ustози. «Ikkinchi Moniy» degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan. Tarixchilardan Mirzo Muhammad Xaydar Do'st Muhammad va Qozi Ahmadning malumotlariga ko'ra Behzodni Sulton Husaynning kitobdori Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olgan.

Behzod musavvirlikni Pir Sayd Ahmad Tabriziydan o'rgangan, o'z ijodida musavvir Xalil Mirzo Shohruhiy badiiy uslubini davom ettirib, uni rivojlantirgan va kamolga etkazgan. Bunda Alisher Navoiyning murabbiylik faoliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Navoiyning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning etuk sanatkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sultonali Mashhadiy va Yoriy Muzakkib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu erda - Navoiy va boshqa sanatkorlar tasirida kamol topgan.

Behzod musavvir sifatida tanilgach, Sulton Xusayn saroyiga xizmatga chaqirilgan. 1487 Sulton Xusayn farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Keyinchalik bu joy o'z davrinig badiiy akademiyasiga aylandi. Uni mutaxassislar «Nigor'xonayi Behzod » yoki «Behzod akademiyasi» deb ataganlar. Musavvir Xirotida Navoiy va Sulton Xusayn hayotlik davrida qizg'in ijod bilan band bo'ldi, ko'plar mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishga rahnomalik qildi, malum k,isini jofisrasmlar bilan ziynatlashda shaxsan ishtirok etdi, qator zamondoshlarining - Navoiy, Jomiy, Sulton Xusayn va boshqalarning chehrakumoylarini yaratdi, bir guruh yoshlarga rassomlik sirlarini o'rgatdi.

1507 - 10 - yillarda Behzod Xirotni egallagan Muhammad Shayboniyxon xizmatida bo'ldi. Bu davrdan bizgacha Behzod yaratgan Shayboniyxon portreti etib kelgan. 1510 yil Xirot shahri safaviylar qo'liga o'tadi. 1520 yilda Shoh Ismoil yosh shaxzoda Taxmosibga rasm o'rgatish uchun Behzodni o'z saltanati poytaxti Tabriz shahriga taklif etadi.

1522 yil esa maxsus farmon bilan rassomni o'z kutubxonasidagi kitobat ahli (kotib, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, halkor, zarko'p, lojuvardshuy va boshqalar)ga mutasaddi etib tayinlaydi. 1524 yil Shox Ismoil vafotidan keyin Shox Taxmosib davrida ham Behzod katta obro' va e'tiborga ega bo'lgan. Tabrizda Behzod Sulton Muhammad Og'a Mirak va Mir Mansur kabi musavvirlar bilan hamkorlikda ijod qildi. Qozi Ahmadning ma'lumotiga ko'ra Behzod hayotining oxirida ona shahri Xirotga qaytgan va shu erda vafot etgan. Musavvirning qabri quhi Muxtor (Murot tog'i: Avg'oniston hududida) ming xushmanzara joyda. O'rta sharqda 17-asrgacha rassomchilikda asosiy taraqqiyot yo'nalishini belgilab bergan Behzod ijodi uning zamondoshlari tomonida yuqori baholangan Behzod o'zidan oldingi rassomlar an'analari davom ettirdi va boyitdi. Asarlarning tarixi murakkab, Yorqin harakatga boy, yorqin, jozibador ranglardan tushirilgan bo'lib ular o'zaro uyg'un. Tabiat jonli hayot manzaralari aniq va haqqoniy ishonarli va ta'sirchan tasvirlangan. Chiziqlar nihoyatda nozik, ranglar nafis ishlangan. Portretlarda insonning ma'naviy qiyofasi, ruxi, his-tuyg'ulari, xulq-atvorini aks ettirishga ahamiyat bergan.

Sa'diyning «Bo'ston» asari qo'lyozmasi (1478 Dublindagi chestr biti kutubxonasida) rasmlari: Attornin «Mantiq ut- mayr» asari qo'lyozmasiga (1483 yil Nyu-Yorkdagi Metropolitin muzeyida) 1487 yil chizilgan rasmlar: Navoiyning «Hamsa » qo'lyozmasiga (1485 Osforddagi Bodli kutubxonasi va Manchesterdagi Jon Reylandos kutubxonasida)

ishlagan 13 rasmning «Payg`ambar o`z saxobalari Bilan», «Xoja Abdullox Ansoriy darvishlar Bilan suhbatda», «Moniy Baxromga Diloromning rasmini ko`rsatmoqda» va boshqalar miniatyuralar Behzodga qalamining mansubligi nisbatdan beriladi. Sa`diyning «Bo`ston» asarining misrdagi nusxasi (1488 Qohiradagi milliy kutubxonada) rasmlari (qo`lyozmani xattot Sultonali Mashxadiy ko`chirgan, naqshlarini Yoriy Muzaxxib yaratgan) - 12 rasmdan 6 tasida Behzodni imzosi bor: «Sulton Husayn saroyida ziyofat» (qo`shrasmi), «Doro va otboqarlar», «Masjiddagi baxs», «Olimlar suxbati» «Zulayxoning Yusufga iltijosi» nomli asarlar Behzod tomonidan yaratilgan; Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma asari» qo`lyozmasining (1467. AQSh, Baltimordagi Jon Xolkinis un - tida) xattot Sherali ko`chirgan nusxadagi 12 miniatyuraning 8 tasi (15 asr 90 -yillarni) Behzod asaridir. Rasmlarda rasmiy qabul, jang lavhalari, qal`a kamali bilan bir qatorda Samarqanda Bibixonim masjidi qurilishini tasvirlovchi qo`shaloqrasm ham mavjud;

Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarining xattot Sulton Muhammad Hyp ko`chirgan nusxasiga (1528. Xiro, Tehrondagi saltana kutubxonasida) Behzod rasmlar chizgan: Nizomiyning «Xamsa» asari nusxasiga (1442 yil Londondagi Britaniya muzeyida) 1493 - 1535 yillar davomida ishlangan 19 ta miniatyuradan 3 tasi Behzod ijodi mahsuli; «Layli va Majnun va kabilalari jangi», «Suvoriylar jangi» va «Bahrom Go`rning ajdar bilan olishuvi». Bularda «Savarraxu al Abd Behzod» degan yozuv bor. Nizomiyning «Xamsa» asari nusxasidagi (1494 Londondagi Britaniya muzeyidagi) 22 ta rasmdan 7 tasida Behzod nomi qayd etilgan:

Amir Xusraf Dexlaviyning "Layli va Majnun" dostoni qo`lyozmasiga (1495. Sankt - Peterburgdagi Saitikov - Shechedrim nomidagi xalq kutubxonasida Behzod "Layli va Majnun maktabda", "Do`stlari va otasi Majnunga nasixat qilmoqdalar" nomli rasmlarni chizgan: Amir Xusraf Dexlaviyning "Layli va Majnun" dostonining Sulton Muhammad Xisraviy ko`chirgan qo`lyozmasi (Sankt - Peterburg)da Behzodga nisbatan berilgan "Madrasadagi baxs" , "Layli va Majnun saxroda", "Majnun Laylining iti bilan" va "Majnun elchisi Layli huzurida" nomli miniatyuralar bor:

Sa`diyning "Guliston" asari qo`lyozmasining (1486. Garvarddagi Fogg san`at muzeyida, sobiq Rot Shild majmuasidan) xattot Sulton Ali Mashhadiy ko`chirgan nusxasiga Behzodni 2 ta rasmi ishlangan:

Amir Xusraf Dexlaviyning "Xamsa" asari qo`lyozmasidagi (1495. Dublindagi Chesbir Bitti kutubxonasida) 13 rasmi 4 tasida Behzod. 2ta rasm ishlagan. Asarlariga xos xususiyatlar mavjud: "Sulton Xusayn bog`da" qo`shaloq rasm (1485 - 90. Dehrondagi Guliston muzeyi, murakkada) "Chol va yigit" rasmi Nyu-Yorkdagi Kevorkan majmuasida: "Tuyalar olishuvi" rasmi (Texrondagi Guliston muzeyida) Sulton Xusayn portreti (Shvestiyadagi F.Martini majmuasida): Muhammad Shayboniyxon portreti, (Timken Burnet majmuasida): Abduraxmon Jomiy portreti (Erondagi Rizo kutubxonasida):

Sulton Xusayn Navoiy qo`shaloq rasm (Sankt - Peterburgda) Behzod asari Jaxon kutubxonalari , qo`lyozma fanlari, muzeylari va shaxsiy majmualarda ham mavjud. Ustoz san`atkor sifatida Behzod Hirot va Tabrizda qator shogirdlarni tarbiyalab etkazdi. Uning shogirdlari Behzod an`analarini keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. (Q.Behzod miniatyura maktabi).

Behzod ijodi va merosi san`atshunoslar, rassomlar tomonidan keng o`rganiladi. Behzod nomi abadiylashtirib, O`zbekiston prizidenti Islom Karimovning farmoni (1997 yil 23 yanvar)ga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta`sis etildi: milliy rassomchilik va dizayn institutiga Behzod nomi berildi .

O`zbekistan Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori (1997 y. 23 dek.) ga binoan, Toshkent, Samarqand shaharlarida va Xorijiy mamlakatlarda YuNESKO xomiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi nishonlandi. (2000 y. Noyabr). Uning va izdoshlarning ijodini

o'rganish me'rosiga oid ashyolarni to'plashga hamda Toshkent shahrida Behzod nomidagi me'morial bog' barpo etishga kirishildi . 2000 yil 23 noyabrda.

Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyida Behzodga bag'ishlanib Buyuk Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy konferenstiya o'tkazildi. Yubiley munosabati bilan Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Kamoliddin Behzod hujjatli filmi yaratildi. (2 qismli 2000 y)

Behzod miniatyura maktabi - sharq miniatyura san'atida Behzod ijodi ta'sirida (xv asr oxiri - xvi asr boshlarida) yuzaga kelgan xos yo'nalish. Kamoliddin Behzod asos solgan va uning shogirdlari, izdoshlari (Qosim Ali, Xoji Muhammad, Muzaffar Ali, Mirsaid Ali Termiziy, Mahmud Muzaxib va. b) tomonidan rivojlantirilgan .

Behzod miniatyura maktabi sharq tasviriy san'atining an'anaviy xususiyatlari (mujassamat echimi, badiiy uslubdagi shartlik) ni saqlagan holda uni yangi ijodiy an'analar bilan boyitadi. Behzod miniatyura maktabi Buxoro, Tabriz va Hindiston maktablariga ham samarali ta'sir ko'rsatgan. Hatto XX – asr boshlarida Evropada yuzaga kelgan impressionistlar ijodida ta'sirini ko'chganligini ko'rish mumkin.

O'zbek rassomlaridan Ch.Ahmarov, Usto Mo'min (A.Nikolaev), Sh. Hasanova, J.Umarbekov, T.Muhammedov , T. Sa'dullaev, Sh.Muhammadjonov va boshqalar o'z ijodlarida Behzod miniatyura maktabi an'alaridan foydalangan.

Pavel-Benkov

Pavel Petrovich Benkov 1879 yilda qozon shahrida tavallud topgan. 1949 yilda Samarqandda vafot etgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1939). Qozon Badiiy bilim yurtida o'qigan. Peterburg Badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulianning xususiy akademiyasida ta'lim olgan. Italiya, Ispaniya, Fransiya safar qilgan. 1913-1928 yillar davomida "Kovalevskiy bolalarining portreti", "Rassom ayol portreti" asarlarini yaratgan. Qozon Katta teatrida betakror spektakllarga dekorastiyalar yaratdi. 1929 yilda Samarqandga kelib 1930 yildan boshlab shahardagi badiiy bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishladi. Uning 30-yillar o'rtalarida yaratgan asarlarida O'zbekistonni, uning qadimiy shaharlari qiyofasi, o'ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o'zbek millati madaniyatini, kishilarini yorqin bo'yoqlarda gavdalantirdi. Uning ("Buxoro timi", (1929;) "Xivalik qiz", (1931;) "Dugonalar", (1940;) "Qaxramonning onasi", (1942); "Janchiga sovg'a", (1945;) "Dutorchi qiz", 1947; "Buxoroda oshxona" 1929, "Eski Buxoro" (1931,) "Minorai kalon" (1930)-; "Ko'cha" (1943), "Registondagi choyxona" (1944), nomli asarlari O'zbekistonning mumtoz me'moriy obidalar va manzaralariga bag'ishlangan. Uning Samarqandning ko'cha va bog'lari, bozor va xovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zaligini yorqin va hayotiy ifodalovchi asarlar ham yaratgan. O'zbekistonda tasviriy san'atni shakllanishda, milliy kadrlar etishtirishda xizmati katta bo'lgan.

Raxim Axmedov

Toshkent shahrida tavallud topdi. Toshkent badiiy rassomlik bilim yurtida 1937 – 41-yillarda Xikmat Raxmonov va Malik Nabiyevlar qo'lida o'qidi. Urush yillari Shimoliy Kavkaz frontida xarbiy xizmatda bo'lib targ'ibiy ishlarda qatnashib portretlar ishladi. Urush tugab Toshkentga qaytgach Rassomlik bilim yurtida o'qishini davom ettirib shu yerdan 1947 yili Leningradga (hozirgi Peterburgga) I.Repin nomidagi Rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutiga o'qishga yuborildi. I.A.Serebryanniy, A.A. Mil'nikov, Yu.N.Neprintsev kabi yetuk rus rassomlari qo'lida o'qib "Xalq xofizi" nomli diplom ishi bilan 1953 yili institutni tugatdi.

Toshkentga qaytgan rassom o'z ijodini birodarlik an'analariga sodiq xolda asarlar yaratish bilan boshladi. Ilk asarlarida akademiya tamoyillar yetakchi o'rinni egallaydi. Ularda xis tuyg'ulardan ko'ra aql, mantiqiy fikr yuritishga moyillik kuchlilik qiladi, xikoyanavislik uning asarlarining ko'p so'zlilikida ko'zga tashlanadi. 1955 yili yaratgan "Birinch maosh" kartinasi shu o'rinda e'tiborga loyiq. Asar kompozitsion tuzulishi rus demokratik san'ati an'analarida, eng avvalo birodarlik kompozitsiya tuzish tamoyillarida asosida sotsialistik realizm metodi ruxida yaratilgan. Asar syujeti sodda. Unda o'zbek ishchisi oilasida sodir bo'lgan voqea, ishchi farzandining birinchi maosh olgan kuni qalamga olingan.

R.Axmedov ilk asarlarida o'qish paytida olgan, o'zlashtirgan bilimlarini namoyish etish bilan birga asta asarlarida individual o'ziga xoslik paydo bo'laboshlaganligi nazarga tusha boshladi. Bu xol rassomning rang tanlashi, asar kompozitsion yechimining va obraz xarakterining ochilishida edi. Yaratilgan har bir asarida uning xis tuyg'alari, borliqqa bo'lgan munosabatining ifodalashga intilishi shu izlanishlarda muhim edi. Ijtimoiy g'oya va davr mavkurasidan farqli o'laroq ijodkorning borliqqa munosabatini ifodalashga intilishi keyingi ishlarida yanada rivojlanib bordi. Asta o'ychan, muloxazali, hayotni achchiq-chuchukligini totigan shaxslar uning asarlarida o'z aksini topa bordi.....

R.Axmedov ijodiy yo'li uning pedagogik faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Rassom o'qishni tagatgach Toshkentdagi Teatr va rassomchilik institutining Badiiy rassomlik bo'limida talabalarga saboq berib yoz oylarida Toshkentning so'lim Burch mulla, Xumson, Oqtoshda dala amaliyotini olib bortsh jarayonida u tabiatni chuqurroq xis eta boshladi. Ishlagan kompozitsiyalarida inson va tabiat uyg'unligidagi uzviy bog'liqlik aksini topa bordi. "A.

Toshtemirov portreti` (1956), `Keksa kolxozchi portreti` (1956), `Ona o`ylari` (1956) kabi dastlabki janrli portretlarida shu fazilatlar o`z ifodasini topgan `Ona o`ylar` kompozitsiyasida (1956) daraxt soyasida, yoritilgan xovli fonida o`tirgan ayol- ona qiyofasida inson ruxiy guzalligini ifoda etada Ko`pni ko`rgan bardam xissiyotga boy, jo`shqin, hayolotga cho`mgan inson gavdalanadi.`Ona o`ylari` (1959) `Yosh mexanizator`, `Mexanizator` portreti 1960) `Dalada ham soldatda 1960) kabi portret kompozitsiyalarida ....`Onalik tongi` (1962 DSM) asarining qahramoni – yosh ona siymosi bo`lib, erta tong padllasidagi tabiatning shoirona xolati bilan organik ravishda kuyilib ketgan ko`rinadi.`Ko`shiq`(1962) asarida mungli, xayratli kuy eshitilganday bo`ladi. Asar o`zining rang munosabatlarida dastruxon atrofida to`planganlarning ruxiy kayfiyatini yuzaga chiqaradi.

O`rol-Tansiqboev

O`rol Tansiqboev mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda dunyoga keldi va 1974 yilda vafot etgan. Yoshligidan san`atga qiziqib, Toshkentdagi badiiy muzey qoshidagi to`garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni uning rahbari rassom I.Repinning shogirdi N.Rozanovdan oldi. To`garakka qatnab yurgan yillaridayoq u ko`plab kompozitsiyalar ishladi.

Uning ana shunday ishlaridan biri 1927 yilda yaratilgan "Toshkentboev portreti" edi. Studiyyada tasviriy san`atdan olgan bilimlaridan ko`ngli to`lmagan O`.Tansiqboev Rossiyaning Penza shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga o`qishga kiradi. U erda I.Repinning shogirdlari I.Goryushkin-Sorokopudov va N.Petrovdan san`at sirlarini o`rgandi. Ayniqsa, uni Penza muzeyidagi ko`plab Rossiyaning mashhur rassomlarining tasviriy san`at asarlari katta taassurot qoldirdi. Ularni o`rganish va nusxalar ko`chirish O`.Tansiqboev uchun katta maktab vazifasini o`tadi. Tansiqboevning mustaqil ijodi O`zbekistonda milliy san`atni tiklash davriga to`g`ri keladi. U o`z ijodining dastlabki yillarida anchagina asarlar yaratgan bo`lsa-da, biroq uning asosiy ishlari 1940 yillardan so`ng boshlandi. U ikkinchi jahon urushi bo`lgan joylarga O`zbekiston delegatsiyasi tarkibida borib, u erlardan katta taassurotlar bilan qaytdi. Natijada "Ozod etilgan erlarda", "Mal`unni yo`li", "Partizan ayol", "Havo jangi" kabi bir qator asarlar yaratdi. 1943 yilda unga O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi unvoni berildi. Urushdan keyingi yillarda O`.Tansiqboev katta o`lchovdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga "Sholichilik kolxozida hosilni yig`ib olish", "Bahor", " Paxtani sug`orish ", "Jonajon o`lka", "Issiq ko`l oqshomi", "Tog`da" kabilarni kiritish mumkin. Rassom ijodining gullagan davrlarida yaratgan asarlaridan biri "O`zbekistonda mart" deb ataladi. Uning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bara ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so`qmoq, daryo qirg`og`ining baland-pastliklari, qiyg`och gullagan daraxtlar, o`zaniga sig`may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog`lar, quyosh nuriga hamoxang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag`ishlaydi. O`.Tansiqboev o`zining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurilayotgai kanallar, suv omborlari, elektrostanstiyalar, neft qidiruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u "Tog`da bahor", "G`ayroqqum GESi tongi", "Angren vodiysi" kabi bir qator asarlar yaratdi. Rassomga shuhrat keltirgan asarlardan biri "G`ayroqqum GESi tongi" deb ataladi. Bu asarda, yuqoridan turib kuzatilgan elektrostanstiya va suv ombori lirik ohangda tasvirlangan bo`lib, undagi qurilishlar tabiat bilan hamoxang uyhg`unlashib ketgan. Suvrat markazidagi erta tongda zangori tusga kirgan elektrostanstiya betoni cheti ko`rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyuladi. Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag`ishlovchi mo``jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo`y cho`zgan musaffo dengiz qa`riga ko`milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan xis etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda

oddiy, lekin sehrlidir. Chunki, dengiz, osmon va erlarning bepoyonligi koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o'ziga tortadi. Manzarada suv, cho'l, tog` va fazoning yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli u nihoyatda salobatli ko'rinadi. O'.Tansiqboev ijodiga xos bo'lgan asarlardan yana biri "Tog`dagi qishloq oqshom" dir. Asar vertikal holdagi kompozistiyadan iborat,unda Respublikamizning tog`lik go'zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda uzoqlarda yaslanib yotgan moviy tog`lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidagi oqib o'tgan soy, kishilar va bolalar tasviri ko'zga tashlanadi. Bu odam shakllari manzaraga hamoxang tarzda hayot bag'ishlaydi. Suratdan ko'rinib turibdiki, kech kirib oqshom og`usida quyosh botgan va tog` cho'qqilari-yu, qoyali toshlarni tun o'z qa'riga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qo'ylarning marashi, soyning shuvillashi, chigirtkalarining chiyillashi eshitilayotgandek tuyuladi. Kechki yog`du bag`rida, uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u er, bu erlarda ko'zga tashlanadi. Kech kirib, serviqor tog`lar orqasiga quyosh berkingan, uning o'rniga oy chiqmoqda. O'.Tansiqboevning diqqatga sazovor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan "Sirdaryo" nomli asari Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadi. 1960 yillarda rassom "Tog` yo'li", "Angren-Qo'qon yo'li", "Angren daryosi", "Tog`da", "Xumson oqshomi", "Chorvoqqurilishida", kabi asarlar yaratdi. Umrining oxirlarida yaratgan "Kuz tongi", "Mening qo'shig'im", "Chordaryo suv omborida" kabi asarlar rassom ijodining cho'qqilari bo'lib qoldi.

Uning asarlariga xos harakterli xususiyatlar Ona - Vatanga muhabbat, uni ulug`lashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmono'par tog`lar, ilon izi kabi uzoqlarga ketgan yo'llar, moviy osmon, osmon bilan tutashib ketadigan go'zal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, yorqin rangdagi odam tasvirlari ham ifodalanadi. O'.Tansiqboev katta hayot yo'lini bosib o'tdi. U 1934 yillardayoq Moskva va Finlyandiyadagi o'tkazilgan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasida o'z acarlari bilan qatnashdi. O'.Tansiqboev 1958 yilda Bryussedaga xalqaro ko'rgazmasida "Qayroqqum GESi" asari bilan qatnashib, xalqaro kumush medal bilan taqdirlandi. Vatanimiz san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom xukumatimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston halq rassomi, Rossiya badiiy akademiasining haqiqiy a'zosi edi. Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari sanat muzeyi, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Moldaviya, Latviya, O'zbekiston san'ati muzeylaridan o'rin olgan.

O'.Tansiqboev manzara janrida ijod qilib, birinchilar qatori o'chmas iz qoldirgan musavvirlardan edi. U o'z asarlarida O'zbekistonning go'zalligini, uning jozibasini kuyladi. O'. Tansiqboevning asarlari bizni Vatanga muhabbat, go'zallikdan zavqlanishga chorlaydi.

Malik-Nabiev

Nabiev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. O'zbekiston badiiy akademiasining akademigi, O'zbekiston halq rassomi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Nabiev Malik tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslaxatiga ko'ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so'ng shu erda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy-grafika fakultetini tugatgan. O'sha yillarda uning san'at borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g'alabani yaqinlashtirishga harakat qildi.

Rassom o'z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarni tasvirlashga juda

edi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YuNESKO ning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarining ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi. M.Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan "Amir Temur portreti" asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M.Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi. Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lganligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Xindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Franstiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mo''jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi.

1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrati bosh mukofatga sazovor bo'ldi. Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halqo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi. M.Nabiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi "Spitamen qo'zg'oloni" suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga "Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni" kabi ishlarni kiritish mumkin.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan. Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.

Evropada	Uygʻonish	davri	sanʼati
Uygʻonish davri sanʼati uning tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi. Uygʻonish davri sanʼati deganda, yaʼni “Renessans” sanʼati tushuniladi. “Uygʻonish” (“Renessans”) atamasi birinchi bor rasmiy tarzda XIU asrlarda Italiyada ishlatila boshlangan. Fan va sanʼatda “Musulmon Renessansi”, “Sharq Renessansi” iboralari ham rasmiy tarzda ishlatilib, uni jahon			

madaniyati rivojiga qo'shgan buyuk xissasi e'tirof etilmoqda. Jahon madaniyatidagi bu harakatlar falsafa, aniq fanlar, san'at va adabiyotning barcha yo'nalishlarida paydo bo'lgan. Shuni ham qayd qilish lozimki, Uyg'onish Italiyada rasmiy ravishda shakllangan bo'lsada, lekin uning dastlabki alomatlari IX-XII, XV asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy mamlakatlarida paydo bo'lgan va falsafa, aniq fanlar, san'at va adabiyotda ko'plab yuksak darajadagi asarlar yaratildi. Uyg'onish davrida yaratilgan asarlarda insonparvarlik g'oyalarini ilgari surib, qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati an'analari davom etdirish bilan ilm-fan o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga barham berish, kishilarning aqliy tafakkurini o'stirish kabi qarashlarni ilgari surdilar. "Uyg'onish" so'zi o'sha davr madaniyatida eng go'zal, namuna qilib olsa arziydigan qadimgi dunyo san'atiga nisbatan qiziqish o'yg'otishi bilan bog'langan. Bu davr san'ati-qadimgi dunyo san'atiga taxlid qilish bilan chegaralanmay balki undan har tomonlama farq qiladi. O'sha davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy tub o'zgarishlar kishilarda yangi ilg'or dunyoqarashni yuzaga keltirdi va u ko'proq insonparvarlik g'oyalari bilan bog'liq edi. Uyg'onish davri madaniyati kishilarning ongini, uni dunyoni bilishdagi qobiliyatlari nihoyatda katta ekanligi aks etdirar edi. Ilm-fanning rivoji bu davrga xos xususiyat edi. Uyg'onish davri madaniyatining barcha yo'nalishlari orasida san'at katta o'rinni egallardi. U avvalgi kabi dunyoni, erni, fazoviy kuchlarning tuzilishini bilish haqida tasavvur hosil qilishni o'z maqsadi deb bilardi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'sha davr odamlarining san'atga munosabatlari nihoyatda yuksak edi. Bu davrda san'at turlari orasida tasviriy san'at va me'morchilik asosiy o'rinni egallagan.

O'yg'onish davrining vatani Florensiya hisoblanib, uning asoschilari rangtasvirchi Mazachcho, haykaltarosh Donatello, me'mor Brunelleski edilar. Mozachcho asarlarida kishilarning qadri-qimmat, jismoniy qudrati va go'zalligi aks ettirilar edi.

Shuningdek, Mozachcho va uning shogirdlarining suvratlarida yorug'soya, hajm, perspektiva, kolorit masalalariga alohida e'tibor berilardi. Italiya rangtasviri o'sha davrlarda asosan maxobatli rangtasvir yo'nalishda rivojlanib u asosan devorlarga ishlanardi. Haykaltarosh Donatelloning ijodi ko'proq haykallar yaratishda yo'nalishda rivojlandi. Me'mor Brunelleski me'morchilikni qadimgi dunyochasiga tushunish lozimligini ilgari surdi. Shu bilan birga bu tushunchalarni o'rta asrlar davridagi tajribalar bilan uyg'unlashtirdi. U o'z asarlarida bino qismlarining o'lchovlariga va ular o'rtasidagi mutanosiblikka alohida berdi. Keyinchalik bu san'atkorlarning g'oyalarini Giovanni Bellini, S.Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Jorjoni, Tistian kabilar davom ettirdilar. XVI asrning 30-40 yillari O'yg'onish davrining inqiroz davri deb hisoblash mumkin. Bu vaqtlarda rassom va haykaltaroshlar O'yg'onish davrining ustalarining g'oya va uslublaridan ma'lum maqsadda voz kechadilar va u Niderlandiya, Fransiya, Germaniya san'atiga ma'lum miqyosda ta'sir ko'rsatdi.

Bu davr rassom, haykaltarosh va me'morlari o'zlarining perspektiva yorug'soya, anatomiya, proporstiya borasidagi kashfiyotlari bilan tasviriy san'atning rivojini yangi bosqichga olib chiqdilar.

Tasviriy san'atda Uyg'onish davri vakillarining g'oyalari va an'analari qo'shni davlatlar madaniyati va san'atiga ta'sir ko'rsatdi. U Niderlandiya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Polsha badiiy madaniyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, Uyg'onish davri san'ati an'analari rassom va haykaltaroshlaridan Van Eyk, Van Der Gus, Paul Breygel Katta, A.Dyurer, F.Klut, J.Gujonlarning ijodida o'z aksini topdi. Uyg'onish davri san'ati haqida xulosa qilib aytganda bu davr san'ati o'zining qahramonona mazmuni, mahobatli tili, umumlashma kuchi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Bu davr

san'atkorlari o'zlari yaratgan mukammal obrazlar yordamida ideal qahramonlarni ifoda etuvchi insonlarni kuylaydilar. Uyg'onish davri san'ati ilg'or yutuqlarni aks etdirib realistik tarzda hayot bilan bog'langan holda rivojlandi. O'rta asr ilohiy qonun-qoidalariga nisbatan Uyg'onish davri inson aql-idrokni qarama-qarshi qo'yadi. Yana u azob-uqubat va itoatkorlikka qarshi, hayotga muhabbat, faollik, kurash, insonga ishonch g'oyalarini kuylaydi. Keyinchalik jahon san'ati tarixida bironta ham san'atkor Uyg'onish davrining rassomlari ochgan kashfiyotlar va yutuqlarini chetlab o'ta olganlaricha yo'q.

Leonardo-daVinchi

Leonardo da Vinchi 1452-1519 yillarda yashab ijod etdi. U Italiyaning Vinchi shahrida tug'ildi. 120-rasm. U rassomchilik bilan birqatorda ko'p yo'nalishlarda ijodiy ishlarni olib borgan. Xususan, sayyoralar harakati, okean suvlari, qushlarning parvozi, tovushlarning quyosh yorug'lig'i ta'sirida tarqalishi, erdagi hayot tarixi va odamzod haqida tadqiqot ishlarini shular jumlasidandir. U tegirmon, qishloq xo'jaligi mashinalari, tunellar, uchish apparatlari borasidagi anchagina ijodiy ishlarni bajardi. San'at sohasida Leonardo haykallar ham ishlardi, me'morlik ham qilardi, musiqa asbobini chalardi, she'rlar to'qirdi, rasm chizardi. Hammasidan ko'ra u rasm ishlashga juda qiziqardi. Dastlab u Florensiyaga kelib rassom va haykaltarosh Andrea Verokko qo'lida o'qiydi. Uning barcha badiiy faoliyati bevosita ilmiy izlanishlar bilan bog'liq edi. U o'zining "Rangtasvir haqida traktat" nomli kitobida realistik san'atining butun bir dasturini bayon etgan. Bu dastur keyingi davr rassomlari tomonidan rivojlantirildi. Leonardoning ko'pgina asarlari diniy mavzularda bo'lsa-da, biroq ularning mazmuni yangicha aks ettiriladi edi. Xususan, rassomning jo'shqin bilan to'lib-toshgan asarlarida kishilarning erdagi hayotiy lavhalari, ularning murakkab ma'naviy dunyosi va kechinmalari o'z ifodasini topardi. Leonardoning ko'pgina asarlarida ona obrazi aks etgan bo'lib, ularda ayollar ulug'lanadi.

Rassomning eng mashhur asarlaridan biri "Maxfiy kecha" deb nomlanadi. 121-rasm. Bu asar 1495-1497 yillarda yaratilgan bo'lib, unda Milan shahrining Santa-Mariya ibodatxonasida ro'y bergan fojeaviy voqea tasvirlanadi. Ma'lum bo'lishicha, ibodatxonada o'z ustozlariga umrbod sodiq bo'lgan shogirdlar orasida sotqin ham bor edi. Asarda avliyo Xrist shu voqeani o'z shogirdlari bilan birgalikda muhokama etishi aks ettirilgan edi. Rassom suvratda insonlarning his va hayajonlarini nihoyatda keng, shu bilan birga undagi obraz va detallarni bir-birlari bilan uyg'un muvofiqlashtirgan holda yaratadi. Rassom rangtasvirni me'morchilik bilan bog'langan holda aks ettirib, kompozitsiya mazmunii yangichasiga hal qiladi. Bu esa tomoshabinda katta taasurol qoldiradi. Rassomni mashhur qilgan asarlaridan yana biri "Monna Liza. Jokonda" deb ataladi. 122-rasm. Asar 1503-1505 yillar davomida yaratilgan bo'lib, xozirda u Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Bu suvratda savdogar Jokondaning xotini tasvirlangan. U taxminan 500 yil ilgari ishlangan bo'lsa-da XX asrga kelib asar katta shov-shuvlarni keltirib chiqardi. Natijada millionlab tomoshabinlar Amerika, Yaponiya, Rossiyada tashkil etilgan ko'chma ko'rgazmalarida asarni bir minutgina ko'rish uchun kecha-kunduz navbat kutib turishlariga to'g'ri keldi. Ayrim odamlar suratga qarata to'punchalardan o'q otishga harakat ham qilgan edilar. Shuning uchun asarning ustki qismini o'q o'tmaydigan oyna bilan to'sishga to'g'ri keldi. Asar haqida yuz tomdan ortiq asarlar yaratildi. XX asrning kishilarini asaradagi nima taajjubga solardi? Nazarimizda, yosh ayol yuzidagi his-tuyg'ularning o'zgaruvchanligidir. Xususan, unda sovuq kinoya, goh noz-karashma, goh ma'yuslik, goh samimiylik, goh jiddiy nigohni, goh ishonarli darajadagi aniqlik, goh yashiringan qandaydir ma'nonini ko'rish mumkin. Bunday bir-biriga qarshi ruhiy holatlar kishini o'ylashga majbur etadi.

“Monna Liza. Jakonda” suvratini kuzatganda, quyidagilarga etibor berish lozim:

-Suvrat	tasviriy	san’atning	qaysi	janriga	mansub?
-Suvratdagi	ayol	qaysi	yoshlarda	bo’lishi	mumkin?
-Suvratdagi	manzara	qaysi	faslga	xos?	
-Ayolning	ruhiy	holati	qanday?		
-Suvrat	kompozistiyasi	sizga	ma’qulmi?		
-Suvratda	rang, yorug`soya,	perespektiva	qoidalariga	qanchalik rioya	qilingan?
-Rassom	suvratdagi ayol	obrazini	tasvirlab,	tomoshabinga	nima demoqchi?

Asar yana shu jihati bilan mutaxassis va tomoshobinlarda qiziqish orttiradiki, rassom o’zining butun umri davomida ishlagan barcha asarlarini sotgan. Lekin “Monna Liza. Jokonda” asarini doimo uni o’zi bilan olib yurgan va uni xech qanday pul sotmagan. Rassom bu asarini hayoti davomida qaysi mamlakatga bormasin uni doimo o’zi bilan olib yurgan. Rassom o’z hayotida juda ko’plab yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdi. Ular “Madonna Benua”, “Madonna Litga”, “+oyadagi Madonna”, “Gul ushlagan Madonna”. “Oqsichqon ushlagan ayol” va boshqalar shular jumlasidandir. Daho Leonardo da Vinchining asarlari kishilarni o’ylashga, go’zallikni tushunishga va qadrlashga o’rgatdi. Uning betakror ijodi barcha davr rassomlari uchun namuna va tajriba makiabini o’tab kelmoqda.

Mikelanjelo-Buonarroti

Mikelanjelo Buonarroti 1975 yilda Italiyaning Kaprize shahrida tug’ilgan. 1594 yilda Rimda vafot etgan. 125-rasm. U dastlabki maxsus ta’limni ustozlari Uyg’onish davrining buyuk vakillari hisoblangan rassom M.Girlandayo va xaykaltarosh Bertoldo di Jovannidan olgan. U asosan mahobatli xaykaltaroshlikda ijod qilib, uning asarlarida inson go’zalligi, uning qudrati, hayotdagi dramatik xolatlar o’z aksini topdi. Uning ilk asarlari qatoriga “Zinapoya oldida turgan Madonna”, “kentavrlar”, “Vakx xaykali”, “Isoga motam”, “Madonna”, “Muqaddas oila” kabilarni kiritish mumkin. Keyinchalik uning yaratgan asarlaridan “David”, “Bosh ko’targan qul”, “O’layotgan qul” kabi asarlari ozod inson bo’lish, qullik va zulmga qarshi kurash ramzi bo’lib qoldi. Xaykaltaroshning “O’layotgan qul”, “Bosh ko’targan qul” nomli ishlari papa Yuliy II qabri uchun tayyorlandi. Unda kurashdagi shiddat ham, zaiflik alomatlar ham o’z ifodasini topgan. U yaratgan asarlari orasida Florensiyadagi ibodatxona uchun ishlagan me’moriy haykaltaroshlik ansambli (“Tong, “Kunduz”, “Kech”, “Tun”). Rimdagi avliyo Pyotr ibodatxonasining me’moriy ansamli, “P’eta Roddanichi” kabi haykallari diqqatga sazovordir. Makelanjeloning “David” nomli mashhur asari Florensiyada ozodlik va mustaqillik timsoli bo’lib qoldi. 126-rasm. David dushman bilan kurashish uchun tayyor turgan shavkatli jangchi qiyofasida tasvirlangan. O’spirin yigit jangovor holda turibdi. +ahramon obrazida katta jismoniy quvvat va ichki ko’tarinklik ifodalanadi. U oyoqda mustahkam turibdi, boshi dushman tomon qaratilgan, qoshlar qayirilgan, lablar qisilgan, qalin sochlar peshonasida osilib turibdi. Bir qo’lda tosh, ikkinchi qo’lida palahmon. Biron daqiqa o’tmasdan u toshni palahmonga solib, aylantirib dushman tomon uloqtiradi. Davidning kuchini ko’rsatish uchun Mikelanjelo haykalini 5,5 metr balandlikda ishlaydi. Uning bo’yni, qo’li, ko’kragi, oyog’idagi muskullarini bo’rttirib ko’rsatadi. +axramon tasvirida shafqatsiz kuch va g’alabaga ishonch sezilib turibdi. “David” mavzusi o’z mustaqilligi uchun to’xtovsiz kurash olib borayotgan kichik bir qahramonona shahar xalqiga yaqin bo’lib, ular orasida keng tarqaldi. Mikelanjeloning “David” haykali uni nihoyatda mashhur qilib yubordi va papa Yuliy II Rim shaxriga uni ishga taklif etdi. Papaning buyrug’iga ko’ra haykaltarosh juda ko’p haykallardan tashkil topgan yirik inshootni qurilishida ishtirok etishi lozim edi. Mikelanjelo bu buyurtma ustida ko’p yillar ishlagan bo’lsa-da uni oxiriga etkaza olmadi. U bir nechta o’zaro bog’liq

bo'lmagan asarlarni yarata oldi xalos. Ular ayrimlari "Bosh ko'targan qul", "O'layotgan qul" haykallaridir.

Birinchi haykalda kishanni uzishga harakat qilayotgan kuchli, yosh go'zal yosh yigit tasvirlangan. Asarda qullikka qarshi g'alayon va g'alabaga bo'lgan ishonch, bukilmagan iroda yigitni mag'rur yuzida va tanasidagi harakatlarda ifodalangan. Muskullardagi yirik, misilsiz zo'riqish ozodlikka bo'lgan qa'tiy harakatni yanada kuchaytirib yuboradi. Ikkinchi haykalda kurashda xalok bo'layotgan qahramon obrazi ifodalangan. +ahramon katta kuch qudratga, quvvatga ega bo'lishiga qaramasdan u noilojlikdan vafot etadi. Lekin u dushman bilan beshavqat kurashdi. Shuning uchun ham uning o'limi yorqin va osoyishta, xotirjam. Uning yuzlarida azoblanish, dard belgilari sezilmaydi. O'smirning go'zal tanasida o'lim talvasasi oldidan ro'y beradigan xunuk, ko'rimsizlik belgilari yo'q. Bu haykal orqali Mikelanjelo hayotdan o'limga o'tish davrini kishi tanasida mohirlik bilan ko'rsata olgan. Biroq, hali tanada harakat bor, engil nafas olayotgan ko'kragi ko'tarilib tushib, oyoqlar sovub, muskullar qochib, silliq ko'rinishga kirmoqda. Mikelanjeloning ijodi insonparvarlik, inson qudrati va uning go'zalligini tarannum etishda nafaqat Uyg'onish davri, balki undan keyingi ijodkorlarga hamnamuna bo'lib qoldi.

Rafae-Santi

Rafael Santi-O'yg'onish davrining buyuk rangtasvirchi rassomi. U 1483 yilda Italiyaning Urbino shahrida tavallud topgan. 1520 yilda Rimda vafot etgan. Rassom va me'mor Rafael Santi dastlabki badiiy ta'limni o'sha davrning mashhur rassomi Perujinodan o'rgangan. U Uyg'onish davrining eng sarmahsul ijodkorlaridan biri edi. Uning ijodiga insonparvarlik, inson go'zalligini tarannum etish, uning mukammalligini madx etish xos.

Rassomning dastlabki asarlari qatoriga "Ristar uyqusi", "Madonna Konestabels", "Mariyaning nikoxi" kabilarni kiritish mumkin. Keyinchalik dramatik mazmundagi "Tobutga qo'yish", "Madonna Granduka", "Bog'bon Madonna" "Stansta deyla Senyatura" kabi asarlar yaratib, katta shuhrat qozondi.

Uning portret janrida yaratgan asarlari uning ijodida katta o'rinni egallaydi. Rassomning "Papa Yuliy II", "Kardinal portreti", "B.Kastilone", "Lev X kardinallar bilan" asarlari shular jumlasidandir. Ijodkor "Madonna Alba", "Madonna di Folino", "Madonna Granduka" kabi madonnalar portretlari orqali ayol go'zalligi va onalik tuyg'usini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi.

Rassomning eng salmoqli ishlari Vatikan saroyidagi mahobatli rangtasvir asarlaridir. Bu erda ishlangan asarlari asosan diniy, falsafa, huquq, she'riyat yo'nalishida bo'lib, ijodkorga katta shuhrat keltirdi. Bu mavzudagi suvratlari "Munozara", "Afina maktabi", "Parnas", "Aql, mezon va kuch" deb nomlanadi. Rafaelning bu turkumdagi asarlarida ozodlik, baxt-saodat, jismoniy barkamollik g'oyalari mujassamlangan. Rassomning diqqatga sazovor bo'lgan eng yuksak badiiy saviyada ishlangan ishlaridan biri "Sikstin Madonnasi" dir. U 1515-1519 yillarda yaratilgan bo'lib, xozirda Germaniyaning Drezden galeriyasida saqlanadi. Bu asarda rassom eng va oliy yorqin insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. 133-rasm.

Sur'atni kuzatar ekanmiz ko'z o'ngimizda duxoba parda ochilib, bola ko'targan osmondan pastga tushib kelayotgan Mariya namoyon bo'ladi. Rassom asarini fazoviy ideal obrazini erdan tashqarida bulutlar ustida tasvirlaydi. Madonnani avliyo Sikistin va avliyo ayol Varvaralar uni kutib olmoqdalar. Madonna Mariya insonlarni saqlab qolish maqsadida o'z o'g'lini qurbon qilib uni ikki farishta orqali insoniyatga tortiq qilmoqda. Asardagi bu mazmun Madonna obrazida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun rassom ayol tasvirini kompozistiya markazida ulug'vor, go'zal va mukkamal tarzda ifodalaydi. Asardagi hamma obrazlar o'zaro bir-birlari bilan mustahkam holda tasvirlangan bo'lib, uni tomoshabin

birinchi nigoxdayoq bilib oladi.
Xususan, asarni kuzatgan odamning birinchi nigoxi Mariya orqali Sikistinga va keyin uning qo'li va nigoxi hamda harakatlari orqali tomoshabinga undan yana Madonnaga, so'ng Madonna kiyimining chekka qiralariga va Varvara nigoxi uni pastga, ikki farishtaga yo'naltiradi, ularning nigoxi yana Madonnaga tomon borishi bilan kuzatish harakati tugallanadi.

Rafael Madonna obrazida ko'pgina murakkab his tuyg'ullarni ifodalaydi. Mariya yuzida g'amginlik to'lib toshgan bo'lsada, biroq u tiniq va xotirjam ko'rinadi. Uning g'amgin chexrasida, katta ochilgan ko'zlarida o'g'lining azoblarini xis etayotgandek bo'ladi. Shu bilan bir qatorda katta qurbonlar qilishga qodir shaxsning chexrasi xis etiladi. Asarda Madonnaning cheksiz ichki xissiyotlari uning jiddiy, biroq yorqin go'zalligi bilan hamoxang tarzda qo'shilib ketgan.

Rafael Uyg'onish davrining daholaridan biri sifatida san'at tarixidi o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi keyingi avlod san'atkorlari uchun mayoq vazifasini o'tamoqda.

Rubens-Piter.PaueI

Mashhur finland rassomi P.P.Rubens 1577 yilda Germaniyaning Zigen shahrida tug'ilgan. 1640 yilda Antverpenda vafot etgan. Dastlabki badiiy saboqlarni bir qator manerizm oqimiga oid manzarachi rassomlardan olgan 1600-08 yillarda Italiyaga kelib, Mekelanjelo, Rafael, Karovajo asarlarini sinchiklab o'rgangan, ularni ishlaridan nusxalar ko'chirgan. Keyinchalik u Flandriyaga qaytib xukumdorlar saroyida rassom lavozimida ishlagan. Uning bu vaqtda yaratgan asarlaridan Evropa O'yg'onish davri va milliy realistik an'analar ta'sirida bo'lganligi seziladi. Rubensning dastlabki asarlari hisoblangan "Butdan olish", "Butni o'rnatish", (1600-1614), "Daxshatli sud" (1600-1616), "Tosh tashuvchilar" (1620), "To'ng'iz ovi" (1618-1620) "Er va suv ittifoqi" kabi asarlarida o'sha davrda san'atida qabul qilingan qoidalardan chetga chiqib, yangi badiiy shakllar asosida asarlar yaratish seziladi. Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlarida inson va tabiat go'zalligi aks ettirish asosiy o'rini egallagan. Bunday ishlar qatoriga mifologiya janridagi "Persey va Andromeda" (1620-1621), tarixiy-alegorik yo'nalishdagi "Mariya Medichining tarixi" (1622-1625), dehqonlar hayotidan "O'roqchilarning daladan qaytishi" (1635-1640), "Levkip qizlarining o'g'irlanishi" (1615-1617), "Uch go'zal" (1638-1640) "Sher ovi" suvratlarida barakko san'atiga xos dabdabalilik, xashamatdorlik seziladi. Rassomning tabiat go'zalligini ifodalovchi "Kamalakli manzara", "Quyosh botishidagi manzara" kabi asarlarida uning estetik qarashlari aks etgan. Uning ko'pgina asarlari jaxonning yirik muzeylaridan bo'lmish-Luvr, Madrid, Myunxen, Drezden suvratlar galeriyasida avaylab saqlanmoqda. Rassom ijodi jaxon tasviriy san'atida asosiy o'rinlardan birini egallab, uning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.